2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 196 (1795), 2026-yil 22-sentabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA PREZIDENTINI DAVLAT DUMASIGA SAYLOV MUVAFFAQIYATLI O‘TKAZILGANI BILAN TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-sentabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Rossiya yetakchisini Davlat dumasiga saylov muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabriklab, parlamentning yangi tarkibiga samarali faoliyat tiladi.

Suhbatda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Hukumatlararo komissiya va Hududlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlari hamda Rossiyada O‘zbekiston madaniyati kunlarini natijador qilib o‘tkazish muhimligi qayd etildi.

Tomonlar bo‘lajak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

O‘zA

TRANSPORT INFRATUZILMASINI IZCHIL RIVOJLANTIRISH IQTISODIYOTNING JADAL O‘SISHIGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev transport-logistika sohasidagi yirik loyihalarning borishi yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal o‘sishi, sanoat ishlab chiqarishi va tashqi savdo hajmining kengayishi transport infratuzilmasini izchil rivojlantirishni taqozo etmoqda. O‘zbekistonni Tinch okeanidan Yevropagacha bo‘lgan eng qisqa quruqlik yo‘lagining asosiy bo‘g‘iniga aylantirish, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bu boradagi ustuvor vazifalardandir.

2030-yilga qadar transport xizmatlari hajmini ikki barobar oshirish, sohaga 9,1 milliard dollar investitsiya jalb qilish va xizmatlar eksportini 5,7 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Taqdimotda ushbu maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari, ularning muddatlari va hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqildi.

Avvalo, aeroportlar qurilishi va modernizatsiyasi bo‘yicha axborot berildi.

Toshkent va Buxoroda umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollar bo‘lgan yangi aeroport majmualarini barpo etish ishlari olib borilmoqda. Yangi Toshkent xalqaro aeroporti dastlabki bosqichda yiliga 20 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Loyiha doirasida davlat-xususiy sheriklik bitimlari imzolanib, hududni qurilishga tayyorlash va muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Yangi Buxoro xalqaro aeroportida aerodrom infratuzilmasi barpo etilmoqda. Yo‘lovchi terminalini qurish va boshqarishga xususiy sherikni jalb qilish bo‘yicha xalqaro tender o‘tkazilmoqda.

Shuningdek, Urganch, Namangan aeroportlarini davlat-xususiy sheriklik asosida, Andijon aeroportini xususiy operatorni jalb qilgan holda modernizatsiya qilish loyihalarining borishi ko‘rib chiqildi. Natijada aeroportlarning o‘tkazuvchanligi oshirilib, yo‘lovchilarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengayadi.

Avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

O‘tgan oyda qiymati 2,2 milliard dollar bo‘lgan Toshkent — Samarqand pulli avtomobil yo‘li qurilishiga start berildi. Urganch va Xiva shaharlarini bog‘lovchi ilk pulli yo‘l ishga tushirildi.

Taqdimotda Toshkent — Samarqand loyihasining keyingi bosqichlarini moliyalashtirish, Toshkent — Andijon va Toshkent — Bo‘stonliq pulli yo‘llari bo‘yicha investorlarni aniqlash hamda amaliy ishlarni boshlash bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi.

Temir yo‘l tarmog‘ining o‘tkazuvchanligini oshirish bo‘yicha takliflar taqdim etildi.

Bugungi kunda asosiy tranzit yo‘nalishlaridagi qator temir yo‘l uchastkalari yuqori yuklama bilan ishlamoqda. Sanoat yuklari hajmining ortishi va yangi yuqori tezlikdagi poyezdlar qatnovining yo‘lga qo‘yilishi mavjud infratuzilmaga talabni yanada oshiradi.

Shu bois, Maktaaral — Sirdaryo, Angren — Pop, Toshg‘uzor — Boysun — Qumqo‘rg‘on, Toshkent — Samarqand va To‘qimachi — Angren yo‘nalishlarini modernizatsiya qilish choralari ko‘rib chiqildi. Ushbu ishlarga 200 million dollar yo‘naltirish hisobiga uchastkalarning o‘tkazuvchanligini 25-30 foizga oshirish mumkinligi qayd etildi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi, Toshkent — Samarqand yo‘nalishida alohida yuqori tezlikdagi temir yo‘l barpo etish, hududlardagi temir yo‘l tarmoqlarini kengaytirish va elektrlashtirish loyihalari yuzasidan axborot berildi. Yuk vagonlari parkini yangilash, mazkur jarayonga xususiy sektorni keng jalb qilish takliflari ham muhokama qilindi.

Xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish va dengiz portlari orqali jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari alohida ko‘rib chiqildi.

Kaspiy dengizidagi Oqtau, Turkmanboshi va Boku, Qora dengizdagi Poti va Anakliya portlarida O‘zbekiston ishtirokida logistika infratuzilmasini yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar taqdimot qilindi. Xususan, Poti portida logistika markazini tashkil etish bo‘yicha bitim imzolangan, loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilmoqda. Anakliya portini rivojlantirishda, shuningdek, Turkiyaning Samsun va Istanbul portlariga chiqishga xizmat qiluvchi Naxichevan temir yo‘li qurilishida ishtirok etish imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

Mazkur loyihalar to‘qimachilik, kimyo, qishloq xo‘jaligi va kon-metallurgiya mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berish yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro yo‘laklardan samarali foydalanish uchun yurtimizdagi logistika markazlari tarmog‘ini ham kengaytirish zarurligi bildirildi.

Xonobod va Angren shaharlari, Yangiyo‘l, Ohangaron, Olot va Termiz tumanlarini transport-logistikaga ixtisoslashtirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan axborot berildi. Toshkent shahri, Toshkent, Andijon, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida jami 17 ta logistika markazi va terminal loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Ularni joylashtirish, investorlarni jalb qilish, moliyalashtirish va zarur infratuzilma bilan ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Taqdimotda yuk tashuvlarini raqamlashtirish va sohada yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga alohida e’tibor qaratildi.

Yuk tashish sohasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi hali ham 42 foizdan yuqori ekani ko‘rsatib o‘tildi. Mahalliy yuk transportlarining yagona reyestri, elektron buyurtmalarni shakllantirish va barcha transport xizmatlarini birlashtiruvchi elektron tizim mavjud emasligi bu boradagi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Shu bois, yagona raqamli transport tizimini yaratish, tashuvchilar reyestrini shakllantirish, elektron yo‘l varaqasi va buyurtmalarni qabul qiluvchi agregator xizmatini joriy etish taklif qilindi. Xalqaro tashuvlarda elektron ruxsatnomalar almashinuvini kengaytirish va yuk harakatini real vaqtda kuzatish imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish choralari ham ko‘rib chiqildi.

Bu orqali tashuvchilar uchun qulaylik yaratish, norasmiy xizmatlarni qonuniy faoliyatga o‘tkazish va sohada shaffoflikni oshirish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan loyihalarning muddatlari, moliyalashtirish manbalari va kutilayotgan natijalarini aniq belgilab, ularni o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirish muhimligini ta’kidladi. Mutasaddilarga muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

O‘zA

“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI MAHALLALARDA AHOLI UCHUN QULAY EKOLOGIK MUHIT YARATMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasini yangi bosqichga olib chiqish, mahallalarda aholi uchun qulay ekologik muhit yaratish va innovatsion yechimlarni joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda yashil hududlarni kengaytirish, daraxtzor va bog‘lar barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ekilgan ko‘chatlarni saqlab qolish, ularni sug‘orish va parvarishlashni tizimli tashkil etish borasida kamchiliklar mavjud.

O‘tgan yil bahorda ekilgan ko‘chatlarning ma’lum qismi qurib qolgan. Hudud iqlimi va tuprog‘iga mos kelmaydigan daraxtlarni tanlash, suv ta’minoti bo‘lmagan joylarga ko‘chat ekish, kasallik va zararkunandalarga qarshi choralarning yetarli emasligi bunga sabab bo‘lmoqda. Orol dengizining qurigan tubida barpo etilgan o‘rmonlarni parvarishlash va himoya qilishda ham muammolar borligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari ishlar samaradorligini ekilgan ko‘chatlarning bir, uch va besh yildan keyingi holati asosida baholash zarurligini ta’kidladi.

Shu munosabat bilan ko‘kalamzorlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, yerni tayyorlashdan boshlab sug‘orish tizimini yaratish va ko‘chatlarni kamida uch yil parvarishlashgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oluvchi yondashuvlar taqdimot qilindi. Ekish muddatlarini har bir hududning ob-havo sharoiti va olimlar xulosasi asosida belgilash, mahalliy iqlimga mos, issiqlik, sovuqqa va suv tanqisligiga chidamli turlarga ustuvorlik berish ko‘zda tutilmoqda.

Ekologiya qo‘mitasiga har bir mahalla kesimida ko‘chat turi, ekiladigan joyi va sug‘orish tizimi aks etgan “yashil xarita”larni ishlab chiqib, aholiga e’lon qilish topshirildi. Mahalla raislari bilan birgalikda har bir ko‘chadagi daraxt va ko‘chatlar holatini muntazam kuzatish, qurish sabablarini aniqlab, bartaraf etish vazifasi qo‘yildi.

Daraxt ekish ishlarini, avvalo, aholi gavjum joylarda, piyodalar yo‘laklari va tunu kun ishlaydigan ko‘chalarda tashkil etish muhimligi ta’kidlandi. Bunday hududlarda soya beruvchi daraxtlarni ko‘paytirish orqali odamlarning yurishi va dam olishi uchun qulay sharoit yaratish zarurligi qayd etildi.

Taqdimotda “Yashil” mahallam” dasturi doirasida mahallalarga kompleks xizmatlar ko‘rsatish takliflari ko‘rib chiqildi. Mahalla buyurtmasi asosida sifatli ko‘chatlar, organik o‘g‘it va suv tejovchi sug‘orish vositalarini yetkazib berish, daraxtlarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilmoqda.

Har bir mahallaga o‘rmonchi-murabbiy biriktirib, aholiga ko‘chat ekish, sug‘orish va parvarishlashni o‘rgatish, uylar, maktab va bog‘chalar oralig‘ida kichik daraxtzorlar hamda jamoat bog‘larini barpo etish rejalashtirilgan. Bu ishlarga mahalla faollari va yoshlardan iborat ko‘ngillilar harakatlarini keng jalb qilish vazifasi belgilandi.

Mahallalarning “yashil reytingi”ni joriy etish taklifi ham muhokama qilindi. Bunda yashil maydonlar ulushi, aholi soniga nisbatan daraxtlar soni, yangi ko‘chatlarning tutib ketishi va aholining ishtiroki asosiy mezonlar bo‘ladi. Yuqori natijaga erishgan mahallalarni obodonlashtirish uchun qo‘shimcha mablag‘lar va “yashil” loyihalarga maqsadli mikrograntlar ajratish orqali rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish topshirildi.

Hududlarni ko‘kalamzorlashtirishda “3-30-300” tamoyiliga asoslangan dasturlarni amalga oshirish taklif etildi. Bunda har bir inson yashash, ishlash yoki o‘qish joyidan kamida uchta daraxtni ko‘ra olishi, aholi yashash hududining kamida 30 foizi daraxtlar soyasi bilan qoplanishi, uyidan 300 metr masofada yashil dam olish hududi bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Ushbu yondashuvlarni turli tabiiy va shaharsozlik sharoitlarida qo‘llash bo‘yicha Toshkent shahrining Yangihayot, Buxoro viloyatining Olot va Samarqand viloyatining Urgut tumanlari uchun ishlab chiqilgan loyihalar taqdim etildi.

Yangihayotda mahalla va jamoat bog‘lari, soya-salqin sayr ko‘chalari hamda sanoat korxonalari atrofida “yashil belbog‘”lar barpo etish rejalashtirilgan. Sizot suvlarini to‘plab, sug‘orishda qayta ishlatish, suv o‘tkazuvchan qoplamalardan foydalanish, organik qoldiqlardan kompost tayyorlash kabi yechimlar nazarda tutilmoqda. Ko‘kalamzorlashtirish ishlari sanoat tashlanmalarini kamaytirish, havo sifatini avtomatik nazorat qilish va chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish bilan birgalikda olib boriladi.

Olot tumanida cho‘l sharoitiga mos, suvni kam talab qiladigan o‘simliklar hisobiga yashil qoplamani kengaytirishga e’tibor qaratiladi. Mahalliy ko‘chatchilikni rivojlantirish, dendrologiya bog‘i va sho‘rga chidamli o‘simliklar bog‘ini tashkil etish, yo‘l va kanallar bo‘yida himoya daraxtzorlarini barpo qilish taklif etilgan.

Urgutda tog‘ va tog‘oldi hududlariga mos ko‘kalamzorlashtirish, dendrologiya bog‘i va jamoat parklarini yaratish, sanoat zonasi hamda temir yo‘l atrofida “yashil belbog‘”lar tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. “Omonqo‘ton” milliy tabiat bog‘ida mahalliy daraxt va buta urug‘lari asosida tabiiy o‘simlik qoplamini tiklash choralari ham ko‘riladi.

Loyihaning ilmiy ta’minotini kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari ko‘rib chiqildi. Hududlarga mos sog‘lom ko‘chatlarni ko‘paytirish uchun “in-vitro” laboratoriya-lari va zamonaviy ko‘chatxonalarni tashkil etish, suvni ko‘p talab qiladigan manzarali gazonlarni bosqichma-bosqich qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar bilan almashtirish takliflari bildirildi.

“Yashil AI” modulini tajriba tariqasida ishga tushirish rejalashtirilgan. Sun’iy intellekt yordamida tuproq, iqlim va suv ta’minoti tahlil qilinib, ko‘chat ekish uchun maqbul maydonlar va daraxt turlari bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi. Ko‘chatlarning qurishi, suv tanqisligi, kasallik va zararkunandalar xavfini erta aniqlash, mas’ullarni ogohlantirish hamda natijalarni yagona xaritada ochiq kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Cho‘llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va bu yo‘nalishda xalqaro grantlarni jalb qilish masalalari ham muhokama qilindi. Cho‘l hududlaridagi yer resurslari va dorivor o‘simliklar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xususiy sektor ishtirokida yaylovlarda qo‘shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni boshlash zarurligi ta’kidlandi. 2027-yil 1-iyulga qadar har bir hududda shunday namunaviy loyihani yo‘lga qo‘yish topshirildi.

Mutasaddilarga taqdim etilgan takliflarni bildirilgan fikrlar asosida takomillashtirish, mahallalarda daraxt ekish va parvarishlash madaniyatini yuksaltirish, yashil hududlarni saqlash bo‘yicha mas’uliyat va nazoratni kuchaytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

O‘zA

600 MILLIONLI MUALLIMA

Bugunning she’ri

Bir maktab bor Qonliko‘lda, bir maktab bor,
Shoir bo‘lsang, yetmish elga shu maktabni maqtab bor.

Dilbandlarning kamolidir davru zamon matlabi,
Yangi zamon maktabidir. Yangi zamon maktabi.

Har o‘g‘il-qiz baxt-tolei bo‘ynimdagi qarzimday,
Yana yuz yil doston qilib kuylab o‘tsam arzigay.

Har yangi uy, yangi bino muqaddimalarimdir,
Muallimlarimdir mening, muallimalarimdir.

Maftun bo‘lib kezgay edim tushib she’riy arshimdan,
Yangi Qoraqalpog‘iston nogoh porlab chiqdi qarshimdan.

Yangi bog‘cha opalaru murabbiylari qadar,
Vazirlardan tortib toki ko‘chabiylari qadar.

Bir murodu maqsad uchun jipslashgan qalbdir bu,
Qirq millionli millat erur, qirq millionli xalqdir bu.

Har maktabga, har manzilga ayta-ayta qaytib bor,
“Esar Jayhun shamollari”n qayta-qayta aytib bor.

Qadim tarixlardan kelgan armonli ko‘l Qonliko‘l,
Dovrug‘i elda taralgan, bugun sharaf-shonli ko‘l.

Shu makonda bir maktab bor, ikkinchi sonli maktab,
Shoir bo‘lsang, yetmish elga shu maktabni bor maqtab.

Prezident tomonidan ulug‘ ish ham iltifot:
Olti yuzu millionlardir ustozlarga mukofot!

Amriqocha lafzda aytsam — bu ellik ming dollardir,
Yangi davru zamonlardan esgan sha’n shamollardir.

Bunday pulni — garchi ishlab, ter to‘kib tolmagandir —
Jorj Vashington janoblari o‘zi ham olmagandir.

Mening muallimalarim — munis opa-singillarim,
Sizning “Vatan darslari”da sel bo‘ldi ko‘ngillarim.

Yuz minglagan shogirdlardan sizga sharaf-shon, singlim,
Martabalar qutlug‘ bo‘lsin Nigoraxon, jon singlim.

Xudoyim, har bir ko‘ngilga mehr beru shafqat ber,
Shunday yangi zamonlarning shavkatiga shavkat ber.

Marg‘ilondan Mo‘ynoq qadar, Zomindan toki Ustyurt,
Oltin davring qutlug‘ bo‘lsin ona yurtim, ota yurt!

Biz jon cheksak, yeru osmon bog‘ bo‘lgay, chaman bo‘lgay,
Bizning Vatan bu olamda betimsol Vatan bo‘lgay.

Mening ham bor shoirligim — Burchim, burchliligimdir,
Yangi davru zamon birlan og‘izbirchiligimdir.

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Buyuk o‘zbek yo‘li

BIZ HAM YELKAMIZNI TUTIB BERAYLIK!

Biz filologlar har bir masalaning mohiyatidan, u iqtisodiyot bo‘ladimi, siyosat va yo ijtimoiy tarmoq, barchasining zamiridan ma’naviyat qidirishga o‘rganganmiz. Qaysi bir masalaning, biror yangilik yoki hayotda tatbig‘ini, g‘oyaning ma’naviy quvvatlarini payqasak, ko‘nglimiz ravshanlashadi.

Davomi 6-betda



Yangi O‘zbekistondagi islohotlar nafasi bizning olis shaharchamizga ham yetib keldi. Prezidentimizning e’tibori sabab tug‘uruqxona masalasi atroflicha o‘rganildi. O‘tgan yili shaharchamizda zamonaviy tug‘uruq majmuasi qurib berildi. Bugun minglab onalar farzandini o‘z mahallasida, zamonaviy va qulay sharoitda dunyoga keltirmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 22-sentabr, 196-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

YO‘LIMIZ RAVON, DILIMIZ CHAROG‘ON BO‘LDI

Biz yashaydigan “Qoraqalpog‘iston” shaharcha fuqarolar yig‘ini Qo‘ng‘irot tumani markazidan qariyb 350 kilometr uzoqda joylashgan. U mamlakatimizning eng olis hududlaridan. Ko‘zdan olis hudud bo‘lgani uchun shaharchamizga unchalik e’tibor berilmasdi. Hatto infratuzilma degan tushunchaning o‘zi yo‘q edi desak, ham bo‘ladi. Aholining turmush tarzi ham shunga yarasha bo‘lgan.



Qutli QOSHIMBETOVA, Qo‘ng‘irot tumanidagi “Qoraqalpog‘iston” shaharcha fuqarolar yig‘ini raisi

Birgina tug‘uruqxona yo‘qligi bois, uzoq yillar ayollar aziyat chekdi. Yaqin hududdagi tug‘uruqxonaga borish uchun 350 kilometr yo‘l bosib o‘tish kerak edi. Bu yo‘l esa talabga umuman javob bermasdi. Oqibatda tug‘uruq muddati yaqin qolganida kelinlarimiz tuman markaziga ketar, o‘sha yerdan ijara uy topib, oy-kuni kelishini kutardi. Gohida eng sinovli davrda bir oylab uyidan olisda yashashga majbur bo‘lardi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar nafasi bizning olis shaharchamizga ham yetib keldi. Prezidentimizning e’tibori sabab tug‘uruqxona masalasi atroflicha o‘rganildi. O‘tgan yili shaharchamizda zamonaviy tug‘uruq majmuasi qurib berildi. Bugun minglab onalar farzandini o‘z mahallasida, zamonaviy va qulay sharoitda dunyoga keltirmoqda. Shuning o‘ziyoq inson qadrini yuksaltirish borasidagi islohotlar amalda samara berayotganidan dalolat.

Keyingi yillarda hududimiz hayoti tubdan o‘zgardi. Jumladan, 2018-yilda “Qoraqalpog‘iston” shaharchasining “Obod qishloq” dasturiga kiritilishi tarixiy burilish bo‘ldi. Dastur doirasida zamonaviy madaniyat saroyi barpo etildi. Ichki yo‘llarga asfalt yotqizildi. Ko‘chalarga yoritqichlar o‘rnatildi. Maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tubdan yangilandi. Bugun posyolkamizga kelgan kishi o‘zgarishlarni ko‘rib, yangi O‘zbekistondagi islohotlar nafasini yaqqol his qiladi.

Muhimi, bu ishlar bir martalik emas, balki izchil davom etmoqda. Shu bois, xalqimizning ertangi kunga ishonchi yanada mustahkamlanmoqda. Yillar davomida aholini eng ko‘p qiynagan muammolardan biri avtomobil yo‘llarining holati edi. Bu nafaqat transport harakatiga, balki iqtisodiy faollik va aholining turmush darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatardi.

2024-yilda G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu xalqaro avtomagistralining 240 kilometr qismi rekonstruksiya qilindi. Natijada ushbu ko‘p yillik muammo o‘z yechimini topdi. Ushbu yo‘l sabab chekka hududlardagi aholining mamlakatning boshqa hududlari bilan aloqalari mustahkamlandi.

Prezidentimizning shu yil 24-iyundagi “Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni mahallalar hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Mahallalarning mustaqilligi va mas’uliyatini yanada kuchaytirish, aholi muammolarini joyida hal etish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, inson qadrini yuksaltirish bo‘yicha dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida shaharchamizni rivojlantirish uchun 100 milliard so‘m ajratiladigan bo‘ldi. Bunday voqea ilgari hech qachon bo‘lmagan. Shu bois, bundan nafaqat biz, balki butun Orolbo‘yi eli birdek quvondi. Kuchimizga kuch, g‘ayratimizga g‘ayrat qo‘shildi. Endi biz ham davlatimiz yaratib berayotgan shunday imkoniyatlarning qadriga yetib, bildirilgan ishonchga mehnatimiz bilan munosib javob beramiz.

“Qoraqalpog‘iston” shaharcha fuqarolar yig‘ini qisqa muddatda yangi O‘zbekistonning eng namunali, obod, xavfsiz va taraqqiy etgan hududlaridan biriga aylanadi. Buning uchun yetarli mablag‘ ajratilyapti. Muhimi, e’tibordan ko‘nglimiz tog‘dek yuksaldi. Yo‘limiz ravonlashib, dilimiz charog‘on bo‘ldi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Munosabat

Mo‘ynoq yurtimizning tabiati eng og‘ir hududlardan biri. Bu olis manzilga e’tibor ham yetarli emasdi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab Mo‘ynoq butunlay yangi qiyofa kasb etdi. Yo‘llarimiz ravon bo‘ldi. Bolalarimiz uchun bog‘chalar tashkil etilib, sport to‘garaklari ish boshladi. Muhimi, Orolning qurigan tubiga ekilgan yashillik sabab ekologik muvozanat tiklana boshlandi.



Nafisa BAYNIYAZOVA, Mo‘ynoq tumani “Bayniyazova Nafisa” fermer xo‘jaligi rahbari

OROLBO‘YIDA YANGICHA TAFAKKUR UYG‘ONDI

Ayniqsa, tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Biz fermerlik faoliyatimizni ancha oldin 2003-yilda boshlaganmiz. To‘g‘ri, o‘sha paytlarda ham g‘alladan yaxshi hosil olib, boshqalarga namuna ko‘rsatganmiz. Lekin bunday namunali fermer bo‘lish oson emasdi. Birgina misol, o‘sha yillarda hududda elektr energiyasi va tabiiy gaz tarmog‘i yo‘q edi. Dizel generatorlaridan foydalanib, ovqatni o‘choqda pishirib kun ko‘rardik. Hozir bunday masalalar qolmagan.

Hududimiz chorvachilikka mos. Shu bois, 2005-yilda 25 bosh echki sotib olib, chorvachilikni boshladik. Vaqt o‘tishi bilan chorva soni ko‘payib, 300-400 boshga yetdi. Endi bu borada ham yangicha ish uslubiga o‘tyapmiz. Bilasiz, yurtimizda barcha sohaga ilmiy yondashilmoqda. Najot ilmda ekanini anglayapmiz. Ilgari ilmli odam desa, faqat olimlarni, o‘qituvchilarni tushunardik. Bugun fermer ham, dehqon ham, oddiy chorvador ham ilmli bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizdagi imkoniyatlar, xalqaro maydondagi do‘stona hamkorligimiz sabab bir guruh o‘zbekistonlik tadbirkorlar Misrga bordik. U yerda cho‘l sharoitida chorva boqish, suv tejamkorligi haqida tushunchaga ega bo‘ldik. Muhimi, o‘sha olis diyorda xalqimizga, yurtimiz rahbariga hurmatni, e’tiborni ko‘rib boshimiz ko‘kka yetdi. Buni vatanda turib aytish, ha, shunday ekanmi, zo‘r-ku, deyish oson. Lekin uydan olisda, mutloq begona muhitda bunday ehtirom ko‘rish butunlay boshqacha kayfiyat beradi.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifini Misrdan turib kuzatdik. Tashrifning ilk kunidagi davlatimiz rahbarining oddiy odamlar bilan uchrashuvi, elimizning samimiy quvonchini, yoshlarimiz va onalarimiz yuzidagi tabassumni ko‘rib, to‘lqinlanib ketdim. Ko‘zimga quvonch yoshi qalqdi.

Davlatimiz rahbari raisligida 19-sentabr kuni Nukus shahrida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda O‘zbekistondan Misrga borgan 30 fermer masofadan ishtirok etdik. Uchrashuvda so‘z berilsa, takliflarimni aytaman degan edim. Lekin biz aytmoqchi bo‘lgan takliflardan ham ko‘ra ko‘proq imtiyoz va imkoniyatlar berildi.

Ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib, hozir ham birovdan kam bo‘layotganimiz yo‘q. Fermerlikdan tashqari boshqa biznes yo‘nalishlarim ham bor. Shularning natijasida hozir kuniga 7-10 million so‘mgacha daromad olaman. Bu oilamizga keladigan sof daromad.

Bugungi kunda “Bayniyazova Nafisa” fermer xo‘jaligimizda umumiy hisobda 1000 gektar yerimiz bor. Shundan chorva uchun 850 gektar yaylov, 150 gektar yerda dehqonchilik qilib kelmoqdamiz. Xorijda tajriba oshirish davomida bildimki, biz hali marrani yanada baland olishimiz kerak. Chunki chorvachilik borasida Mo‘ynoq tumanining ishga solinmagan salohiyati katta. Bunga esa bilim va xalqaro tajriba orqali erishish mumkin.

Mo‘ynoqning kechagi kuni bilan bugungi qiyofasi o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bir paytlar elektr chirog‘i va gazsiz, oddiy sharoitlarda mehnat qilgan bo‘lsak, bugun dunyo tajribasini Orolbo‘yiga olib kirish haqida izlanyapmiz. Nukusdagi tarixiy yig‘ilishda berilgan mislsiz imtiyozlar bizni yanada kuchli shijoat bilan olg‘a intilishga ruhlantirdi. Endigi maqsadimiz faqatgina erishilgan yutuqlar yoki shaxsiy daromad bilan cheklanish emas. Biz ilm va xalqaro tajribaga tayanib, Mo‘ynoqning bor salohiyatini to‘liq ishga solamiz. Zero, yangi O‘zbekistonda mehnat qilgan, izlangan va ilmga intilgan insonning qadri ham, marrasi ham doimo baland bo‘ladi.

QORAQALPOQ ELIGA KATTA LOYIHALAR OLIB KELINMOQDA

Bugun mamlakatimizda xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa har bir hududning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, aholi daromadini oshirish va farovonligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.



Rahima YULDASHEVA, Xalq deputatlari Beruniy tumani kengashi deputati

Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida aholi daromadini oshirish bo‘yicha qilingan tizimli ishlarning amaldagi isbotini hududlarda ochilayotgan ish o‘rinlari misolida ko‘rish mumkin. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashabbusi bilan Kegeyli tumanida tashkil etilgan issiqxona majmuasiga 12,5 milliard so‘m imtiyozli mablag‘ ajratilib, 5 gektarda zamonaviy yengil tipdagi issiqxona barpo etildi. Natijada dastlab ijtimoiy reyestrda turgan 50 oila qamrab olinib, ular uchun doimiy ish o‘rni ochildi.

Tanlab olingan har bir ehtiyojmand oilaga 10 sotixdan issiqxona maydoni ajratib berilgan. Eng muhimi, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini lider tadbirkor bozor narxida sotib oladi. Shuningdek, mazkur issiqxona kompleksida yiliga 1000 kishini issiqxona xo‘jaligi va dehqonchilik sohasi bo‘yicha o‘qitish ham yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur tizim aholi uchun kafolatli va barqaror daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, issiqxona yaqinida joylashgan 350 metrli zovurda 500 bosh o‘rdak boqishga mo‘ljallangan maxsus o‘rdakxona tashkil etilgan. Loyiha doirasida oilalarga Braziliyadan keltirilgan “Favorit” nasli o‘rdaklardan 10 boshdan tarqatib berilgan. Bugun zovurlardan ham samarali foydalanish va daromad topish imkoniyati yaratilmoqda.

Prezidentimiz tashrif davomida “Kegeyli baraka nasli parranda” korxonasi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi. Loyihaning umumiy qiymati 7,8 million dollar bo‘lib, umumiy maydoni 21 gektarni tashkil etadi. Korxonada mahalliy 70 kishi doimiy ish o‘rni bilan ta’minlangan. Hozir korxonada 130 ming tovuq parvarish qilinayotir. U tuman iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shish bilan birga aholining bandligi ta’minlanishiga xizmat qilyapti.

Eng muhimi, Kegeyli tumanida ish boshlagan ushbu korxona Orolbo‘yi hududining parranda go‘shti va tuxumiga ehtiyojini qondiribgina qolmay, eksportga ham chiqarilmoqda. Joriy yilning sentyabriga qadar Afg‘onistonga 1,1 million dollarlik mahsulot eksport qilingan.

Prezidentimiz bunday majmualar kelgusida yirik parrandachilik xoldinglariga aylanib, nafaqat yangi, balki yuqori maoshli ish o‘rinlarini ochishga xizmat qilishi kerakligini qayd etdi.

Bugun biz birlashib, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi uchun birga harakat qilsak, har qanday yuksak marraga erishamiz. Prezidentimiz qoraqalpoq eliga har bir tashrifida katta loyihalarni olib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi ishlar taraqqiyotining mustahkam asosini yaratmoqda.



> **Prezidentimiz tashrif davomida “Kegeyli baraka naslli parranda” korxonasi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi. Loyihaning umumiy qiymati 7,8 million dollar bo‘lib, umumiy maydoni 21 gektarni tashkil etadi. Korxonada mahalliy 70 kishi doimiy ish o‘rni bilan ta’minlangan.**

EZGU ISHLARDA KAMARBASTAMIZ



Hurliman BERDIYEVA, pensioner

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasida qator nuroniylar va tuman faollari bilan uchrashuvi chog‘ida suhbatlashish baxtiga muyassar bo‘ldim.

Mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar inson qadrini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning kelajagi, millatimizning ravnaqi uchun kunu tun tinim bilmay ishlamoqda. Jumladan, biz, nuroniylar ham davlatimizning e’tibori va g‘amxo‘rligidan bahramandmiz. O‘z navbatida, biz ham nafaqa olib uyda bamaylixotir o‘tirmay, Prezidentimiz yonida ezgu ishlarda kamarbasta bo‘lamiz. Yoshlarning to‘g‘ri tarbiyalanishi, mahalla ahlining og‘izbirchilikda yashashi, mehnat qilishi va rivojlanishi yo‘lida qo‘limizdan kelgan yordamni ayamaymiz.

E’tibor berib qarang: dunyo alg‘ov-dalg‘ov, ko‘p davlatlar notinch. Shunday pallada Prezidentimizning odilona siyosati tufayli qo‘shni davlatlar bilan do‘stlik rishtalari qayta bog‘lanmoqda. Elimiz tinch, osmonimiz musaffo. Shunday osuda davlatda yashayotgan ekanmiz, har doim shukr qilishimiz kerak.

Mana, qoraqalpoq elida obodonlashtirish, qurilish ishlari avj olgan. Bundan 7-8 yil oldin hatto tushimizga ham kirmagan islohotlar ko‘z o‘ngimizda ro‘y bermoqda. Ko‘zimiz bilan ko‘rib, qalbimiz bilan sezmoqdamiz. Bunga har bir xonadon misolida guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Prezidentimiz biz, keksalar uchun Bo‘zatov sanatoriysini qurdirib berdi. Ushbu sihatgohga birinchilar qatorida borib, dam oldim. U yerdagi imkoniyatlarni, sharoitlarni ko‘rib, havas qildim. Biz oldinlari bunday o‘zgarishlarni ko‘rmaganmiz.

Ajiniyoz bobomiz o‘zi tug‘ilgan Bo‘zatov haqida bundan ikki asr ilgari:

Ketar bo‘ldik, bizlar endi bosh olib,
Xayr, omon bo‘l, bizdan qolding, Bo‘zatov.
Xayrlasharli qora ko‘zga yosh olib,
Xayr omon bo‘l, bizdan qolding Bo‘zatov,

— deb yig‘lab yozgan, ona yurtini tashlab ko‘chgan edi. Bugunga kelib, ulug‘ bobomiz armon bilan yod etgan Bo‘zatov ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan darajada obod bo‘ldi. Go‘zal maskanga aylandi.

Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog‘istonga tashrifi shu tariqa bir umr esda qolarli taassurotlar qoldirdi.

MILLATLARARO TOTUVLIK – UMUMIY YUTUQLARIMIZ POYDEVORI



Almagul BAYRIYEVA, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti siyosatshunoslik va ma’naviyat asoslari kafedrasi mudiri, siyosiy fanlar doktori, professor, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqorg‘i Kengesi deputati

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifi qalbimizga cheksiz g‘urur, faxr va ertangi kunga mustahkam ishonch bag‘ishladi. Mana shunday bag‘rikeng, turfa millat va elat yagona vatan, bir butun xalq bo‘lib yashaydigan yurtning farzandi ekanimizdan cheksiz faxrlandik. Millatlararo totuvlik, ahillik va mehr-oqibat eng buyuk kuch va hayotiy tayanchimizdir. Shu bois, yurtimizda misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Axir ahillik bor joyda baraka, unum bo‘ladi!

Ha, xalqning eng katta boyligi turli madaniyat vakillarining bir zaminda tinch-totuv yashay olishida. Bir-birining qadriyatlarini hurmat qilgan jamiyatda umumiy maqsadlar yo‘lida hamjihat bo‘la oladi.

Yangi O‘zbekiston siyosati markazida “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi mujassam. Bu qadriyat millati, tili va dinidan qat’i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroga tegishlidir. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham millatlararo totuvlikni mustahkamlash, barcha fuqarolar uchun teng sharoit yaratish kafolatlari yanada kuchaytirildi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, O‘zbekistonning kuch-qudrati uning ko‘p millatli xalqining birligi va jipsligidadir. Buning uchun esa amaliy ishlar bajarilmoqda. Masalan, O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch va ahil hayot kechirmoqda. Mamlakatda 157 ta milliy madaniy markaz va 46 ta do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda. Ta’lim 7 tilda olib borilsa, tele va radiodasturlar 12 tilda efirga uzatiladi, gazeta va jurnallar esa 14 tilda nashr etilmoqda. So‘nggi yillarda millatlararo munosabatlar sohasida 10 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bu ham ushbu yo‘nalish huquqiy jihatdan izchil mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda yana bir hayotiy haqiqatni aytib o‘tmoqchiman. Iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy ishonch bor joyda birdamlik yanada mustahkamlanadi. Keyingi yillardagi islohotlar sabab yurtimizda ana shunday ahillik, birdamlik ruhi kuchaydi. Xalqimiz qalbida ishonch mustahkamlandi. Buni Qoraqalpog‘iston rivoji uchun berilgan imkoniyat va imtiyozlar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Orolbo‘yida soliq imtiyozlari berilib, foyda, yer va mol-mulk soliqlari 2 baravar, sanoat korxonalari uchun elektr tarifi 15 foiz pasaytirilgan. Ijtimoiy soliq esa atigi 1 foiz etib belgilangan. Bular tadbirkorlar uchun katta qanot bo‘ldi. O‘tgan yili hududga 1 milliard 700 million dollar sarmoya kiritilgan. Joriy yilning birinchi yarmida iqtisodiyotimiz 10,2 foiz o‘sgan. Shu jihatdan Qoraqalpog‘iston Toshkent shahridan keyingi ikkinchi o‘ringa chiqdi.

Bu ishlar o‘z-o‘zidan bo‘lib qolgani yo‘q. Prezidentimiz e’tibori, yaratib bergan sharoitidan ilhom olgan ko‘p millatli xalqimiz ahil-inoq bo‘lib, fidokorona mehnat qildi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillarda go‘zal an’anaga aylangan katta tashabbus va yangi imtiyozlar bilan Orolbo‘yiga tashrif buyurdi. Masalan, kelasi yil mart oyidan Toshkent va Nukus o‘rtasida tezyurar poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. U safar vaqtini 16 soatdan 7 soatga qisqartiradi. Bu quvonchli xabar hozirdanoq bizga qanot bag‘ishlamoqda. Shuningdek Tuyamo‘yin suv inshooti rekonstruksiya qilinib, Qo‘ng‘irotdan Mo‘ynoqqacha 100 kilometr yangi ichimlik suv tarmog‘i tortilishi elimiz farovonligini yanada oshiradi. Qo‘ng‘irot, Qorao‘zak va Taxiatosh “yashil sanoat yo‘lagi” hamda “intellektual iqtisodiyot uchburchagi”ga aylanadi. Sun’iy intellekt va data markazlar sohasida 8 milliard dollarlik loyihalar doirasida minglab yoshlarimiz yuqori daromadli ish o‘rniga ega bo‘ladi. Yana bir quvonchli holat. Taxtako‘pirda Italiya kompaniyasi bilan 50 million dollarlik loyiha asosida yetishtiriladigan mahsulotlar Yevropaga eksport qilinadi. Nukus tumanida esa 10 ming gektarda chet el tajribasi asosida qovunchilikni rivojlantirishga qaratilgan xolding tuziladi. 30 ming gektarda sho‘rga chidamli olxo‘ri va o‘rik plantatsiyalari barpo etilishi esa ming-minglab oilalarga qut-baraka olib keladi.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham biz kutmagan darajada katta loyihalarga start berildi. Masalan, Nukus shahrida yirik “Universitet tibbiy klasteri” tashkil etiladi, Bo‘zatov va Taxtako‘pirda mehnat qilayotgan shifokorlarga 200 foizgacha oylik ustama beriladigan bo‘ldi. Yoshlar davr talabiga mos ravishda kasb-hunar o‘rganishi uchun Nukus shahridagi 1-texnikumda 70 ta davlat tan oladigan xalqaro diplom beriladigan bo‘lyapti. Buning uchun xalqaro darajadagi o‘quv dasturi yo‘lga qo‘yilgan.

Ana shunday katta marralar olingan bir pallada jamiyatda ahillik bo‘lsa, maqsadga yetish oson kechadi. Yurtimizdagi qisqa vaqtda erishilayotgan katta yutuqlarning siri shunda. Bugun har bir qoraqalpog‘istonlik “Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun, o‘zim dema g‘amxo‘rlik qil xalq uchun” degan purma’no so‘zlarni diliga tugib, ishonch ila olg‘a intilmoqda.



35 YILLIK MUSTAQILLIK:

IQTISODIY SALOHIYATDAN INSON FAROVONLIGIGA



Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senati qo‘mita raisi,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi,
professor



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mita raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ortda qolgan 35 yil tarix uchun qisqa muddat. Biroq shu yillarda Vatanimiz hayoti shunday ulkan o‘zgarishlarga boy bo‘ldiki, ularni oddiy yilnoma doirasida baholash qiyin. 1991-yilda taraqqiyot yo‘lini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakat bugun iqtisodiy salohiyati ortib, tashqi dunyo bilan ochiq munosabatlar o‘rnatib, yangi bozorlar va hamkorlik maydonlarini o‘zlashtirib, inson farovonligini o‘z siyosatining muhim mezoniga aylantirgan davlatga aylandi.

Davlat mustaqilligining dastlabki yillaridagi vazifalar bilan bugungi masalalar o‘rtasida katta farq bor. O‘sha paytda milliy iqtisodiyotning huquqiy va institutsional asoslarini yaratish, ishlab chiqarishni saqlab qolish, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish, milliy moliya tizimi va iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish hayotiy zarurat edi. Bugun esa mamlakatimiz oldida raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, inson kapitalini kuchaytirish, jahon bozorlarida munosib o‘rin egallash va aholi farovonligini yangi pog‘onaga ko‘tarish vazifasi turibdi.

Shu bois, 35 yillik taraqqiyotga baho berishda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zi bilan cheklanib qolish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Muhimi, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati qanday shakllangani, tarkibiy va sifat jihatdan qaysi bosqichlarda yangicha mazmun kasb etgani, yaratilgan imkoniyatlar jamiyat hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatgani va eng muhimi, insonning turmush darajasi, farovonligi hamda kelajakka ishonchida qanday amaliy natijalarda namoyon bo‘lganini anglashdir.

Milliy iqtisodiy poydevorning yaratilishi

1991-yildagi iqtisodiy manzara bugungi iqtisodiy imkoniyatlar va salohiyatdan tubdan farq qilar edi. Respublika iqtisodiyoti sobiq ittifoqning yagona xo‘jalik tizimiga chambarchas bog‘langan, ishlab chiqarish, kooperatsiya va ta’minot zanjirlari umumittifoq miqyosida shakllantirilgan edi. Shu bois, davlat mustaqilligi mamlakatimiz uchun nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy taqdirini ham mustaqil belgilash, milliy iqtisodiyotni o‘z manfaatlari va ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish hamda mustaqil taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun tarixiy imkoniyat yaratdi.

Bu jarayon oson bo‘lmadi. Ishlab chiqarish aloqalarining uzilishi, yangi bozorlarni izlash, aholini zarur tovarlar bilan ta’minlash, milliy moliyaviy tizimni shakllantirish, davlat boshqaruvining yangi iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish kabi vazifalar bir vaqtning o‘zida hal etilishi lozim edi.

Shu davrda yaratilgan iqtisodiy poydevor keyingi taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Milliy valyuta ta’sis etildi, bozor munosabatlarining huquqiy asoslari shakllandi, xususiy mulk va tadbirkorlik instituti qaror topdi, milliy bank-moliya tizimi yaratildi. Qishloq xo‘jaligi ham yangi xo‘jalik yuritish shakllariga o‘ta boshladi.

Eng muhimi, davlat mustaqilligi iqtisodiy siyosatning maqsadi va ustuvor yo‘nalishlarini milliy manfaatlardan kelib chiqib belgilash imkonini berdi. Bu imkoniyat keyingi yillarda bosqichma-bosqich kengayib bordi.

Mustaqillikning dastlabki davrini bugungi natijalar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri solishtirish tarixiy jarayonning murakkabligini soddalashtirib qo‘yadi. O‘sha yillardagi asosiy vazifa jadal o‘sishga erishishdan ko‘ra, mustaqil iqtisodiy tizimni barpo etish, barqarorligini ta’minlash va mamlakatni yangi iqtisodiy sharoitga moslashtirishdan iborat edi. Ana shu poydevor keyinchalik yangi iqtisodiy islohotlar uchun zarur shart-sharoitni vujudga keltirdi.

To‘plangan salohiyatni yangi bosqichga olib chiqish ehtiyoji

2016-yilga kelib, milliy iqtisodiyotimizning asosiy institutlari shakllanib, iqtisodiy barqarorlikning zarur asoslari yaratilgan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va tadbirkorlik sohalarida muayyan tajriba to‘plangan edi. Ayni paytda jahon iqtisodiyotida kechayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, aholi soni va ehtiyojlarining izchil ortib borishi, zamonaviy texnologiyalarning jadal ommalashuvi mamlakatimiz iqtisodiyoti oldiga yangi vazifalarni qo‘yib, iqtisodiy salohiyatdan yanada samarali foydalanish, iqtisodiy munosabatlarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va taraqqiyotning yangi manbalarini izlash zaruratini yuzaga keltira boshladi.

Mamlakatda muayyan iqtisodiy salohiyat shakllangan edi. Endi esa uning samaradorligini oshirish va imkoniyatlarni to‘liq ishga solish talabi yuzaga keldi. Tadbirkorlik faoliyatiga xalal beruvchi ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish, investitsiyalar uchun yanada qulay sharoit yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirish, valyuta munosabatlarini takomillashtirish, aholi daromadini oshirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish kabi vazifalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz taraqqiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurati tobora yaqqol namoyon bo‘ldi. Iqtisodiy o‘sishni resurslar va imkoniyatlarni kengaytirish bilangina ta’minlashning samarasi cheklanib borar, barqaror taraqqiyot uchun yangi o‘sish omillarini ishga solish zarur edi. Bu esa zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, xususiy tashabbus va tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirishga asoslangan yangi iqtisodiy yondashuvni shakllantirishni taqozo etdi.

Ana shunday sharoitda Shavkat Mirziyoyevning davlatimiz rahbari sifatida faoliyat boshlagani mamlakatimiz taraqqiyotining keyingi bosqichida iqtisodiy islohotlarni yangi mazmun va ustuvor vazifalar asosida davom ettirish uchun muhim siyosiy omil bo‘ldi. Bu davrda ilgari shakllangan iqtisodiy salohiyat va institutsional asoslarga tayangan holda iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, tadbirkorlik va xususiy mulkni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, aholi daromadi va farovonligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar boshlandi. Shu tariqa mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida imkoniyatlarni saqlab qolish va kengaytirish bilan bir qatorda, ulardan samarali foydalanish, yangi o‘sish nuqtalarini shakllantirish hamda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga asoslangan yangi yondashuv qaror topa boshladi.

2017-2026-yillar: islohotlarning muhim davri

Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan islohotlar iqtisodiy siyosatning qator ustuvor yo‘nalishlarini tubdan yangiladi. Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar iqtisodiy o‘sish bilan birga investitsiyaviy faollik, tadbirkorlik, raqobat muhiti, eksport salohiyati va inson kapitaliga tayanib bordi.

Valyuta bozorining liberallashtirilishi bu jarayondagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Tadbirkorlar uchun valyuta operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatining kengayishi tashqi iqtisodiy faoliyatga yangi sharoit yaratdi. Xorijlik investor uchun ham mamlakatimiz iqtisodiyotining ochiqligi va kapital harakatining qulayligi muhim omilga aylandi.

Iqtisodiy o‘sish ko‘lamining kengayishi mamlakatimizdagi islohotlarning muhim natijalaridan. 2025-yil yakuniga ko‘ra, yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati 7,7 foizni tashkil etib, hajmi 147 milliard dollarga yetdi. Shu yilda xorij investitsiyasi hajmi 43,1 milliard dollarni, tashqi savdo aylanmasi esa 81,2 milliard dollarni tashkil qildi. Mazkur ko‘rsatkichlar milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’ati bilan bir qatorda investitsiyaviy jozibadorligi va tashqi iqtisodiy faolligi ham izchil ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Bu raqamlar iqtisodiy o‘sishning bir nechta manbasi shakllanganini namoyon etadi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga



investitsiyalarni jalb qilish, tashqi bozorlarga chiqish va xususiy sektor faolligini kengaytirish iqtisodiy siyosatning o‘zaro bog‘liq qismlariga aylandi.

Davlatimiz rahbari mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta’kidlaganidek, islohotlar tufayli mamlakatimizga yiliga jalb qilinadigan xorijiy sarmoya hajmi avvalgi 2-3 milliard dollardan hozir 40-50 milliard dollargacha oshgan. Shuningdek, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”dagi o‘rnimiz 80 pog‘ona yaxshilanib, mamlakatimiz iqtisodiyoti mo‘tadil, erkin davlatlar qatoridan joy olgan. Uch yil oldin 2030-yilga mo‘ljallab belgilangan 160 milliard dollarlik yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichiga erishish vazifasi global noaniqliklarga qaramay, aynan shu yilning o‘zida ortig‘i bilan bajarilishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatimizni daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqadi.

2026-yilda ham iqtisodiy faollik yuqori sur’atda davom etmoqda. Yanvar-iyun oylarida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi 41 milliard dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 foiz o‘sdi. E’tiborli jihati oltinsiz tovar eksporti 28,7 foiz ko‘payib, 8,2 milliard dollarga yetdi. Shu davrda 195 davlat bilan savdo aloqalari amalga oshirildi.

Eksport tarkibidagi sifat o‘zgarishlari iqtisodiyotning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonda xomashyo eksporti bilan cheklanib qolmay, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor va qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda tashqi bozorlarga yetkazib berish, shuningdek, xizmatlar eksportini izchil kengaytirish milliy iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Natijada eksportning nafaqat hajmi, balki tarkibi va iqtisodiyotda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatdagi ulushini oshirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Bu jarayon yangi iqtisodiy muhitning boshqa belgilarini ham yuzaga chiqarmoqda. Raqamli texnologiyalar, startaplar va innovatsion tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. StartupBlink (Global Startup Ecosystem Index) ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilda O‘zbekiston startap ekotizimi o‘sish sur’ati bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egallab, bir yillik o‘sish 227,3 foizni tashkil etgan.

Innovatsion salohiyatning xalqaro bahosi ham o‘zgarmoqda. WIPOning Global Innovation Index 2025 reytingida O‘zbekiston 139 mamlakat orasida 79-o‘rinni egalladi. Mamlakatimiz Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida Hindistondan keyingi yuqori natijalardan birini qayd etdi. WIPO mamlakatimizni iqtisodiy rivojlanish darajasiga nisbatan innovatsion natijalari yuqori davlatlar qatorida ham qayd etgan.

Bu natija iqtisodiyotda yangi bilim, texnologiya va tashabbusning o‘rni ortib borayotganini anglatadi. Ertangi iqtisodiy raqobatda mamlakatimizning tabiiy resurslari bilan birga insonning bilim va g‘oya yaratish qobiliyati ham hal qiluvchi omilga aylanadi.

Tashqi iqtisodiy ochiqlik

Ichki iqtisodiy islohotlar tashqi dunyo bilan munosabatlarning yangi mazmunini shakllantirdi. Tashqi savdo geografiyasi kengaydi, investitsiyaviy aloqalar faollashdi, xorijiy kompaniyalar bilan sanoat kooperatsiyasi kuchaydi.

2026-yil birinchi yarmida tashqi savdo aylanmasida Xitoy 9,5 milliard dollar, Rossiya 7 milliard dollar, Qozog‘iston 2,8 milliard dollar, Turkiya 1,4 milliard dollar hajmi bilan yetakchi savdo hamkorlarimiz qatorida bo‘ldi. Qirg‘iziston bilan savdo 624,6 million dollarni tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy ochiqlikning mazmuni faqat savdo hajmi bilan belgilanmaydi. Xorijiy sarmoya evaziga yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi, texnologiyalar kirib keladi, boshqaruv tajribasi yangilanadi. Mahalliy korxonalar xalqaro ta’minot zanjiriga ulanish imkoniga ega bo‘ladi.

Shuning uchun 2026-yilda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan alohida strategiya ishlab chiqilayotgani ham iqtisodiy siyosatning uzoq muddatli xususiyatini ko‘rsatadi. Ushbu hujjatni ishlab chiqishda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan bir qatorda iqtisodiy va mintaqaviy tadqiqot tuzilmalari ishtirok etmoqda.

Tashqi iqtisodiy ochiqlikning yana bir muhim natijasi O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi o‘rni va nufuzi tobora mustahkamlanib borayotganidadir. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o‘zgarishlar va infratuzilmaviy yangilanishlar xorijlik hamkorlar va xalqaro ekspertlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy siyosati, mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga intilishi hamda investitsiyaviy va savdo aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvi mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ahamiyatini oshirmoqda. Bu esa yurtimizdagi iqtisodiy o‘zgarishlar tashqi iqtisodiy aloqalar, mintaqaviy integratsiya va global iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda kechayotganini ko‘rsatadi.

Yaxshi qo‘shnichilikdan mintaqaviy sheriklikka

Iqtisodiy taraqqiyotimizni Markaziy Osiyodagi o‘zgarishlardan alohida tasavvur qilib bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda qo‘shni davlatlar bilan siyosiy ishonchning kuchayishi iqtisodiy hamkorlikka ham yangi sur’at berdi.

2016-yilda O‘zbekistonning mintaqa davlatlari bilan savdo aylanmasi qiymati 2,4



milliard dollar atrofida edi. 2024-yilga kelib, 7,2 milliard dollarga yetdi. Shu davrda mintaqa mamlakatlari bilan tashkil etilgan qo‘shma korxonalar soni 1800 tadan oshdi. Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti ham so‘nggi sakkiz yilda qariyb 2,5 baravar o‘sib, 520 milliard dollarga yetdi.

Qozog‘iston bilan hamkorlikda sanoat kooperatsiyasi, avtomobilsozlik, energetika, kimyo, metallurgiya, farmatsevtika, logistika va qurilish materiallari kabi tarmoqlarda qo‘shma loyihalarning kengayishi kuzatilmoqda. 2026-yil may oyida ikki davlat investitsiya va savdo sohasidagi kelishuvlarni amalga oshirishga qaratilgan yangi “yo‘l xarita”sini imzoladi.

Qirg‘iziston bilan munosabatlar esa yaxshi qo‘shnichilikning odamlar hayotiga eng yaqin ko‘rinishlarini namoyon etmoqda. 2025-yil yakuniga kelib, ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi 1,2 milliard dollarga yetdi. Qo‘shma korxonalar soni 450 taga chiqdi. Toshkent — Bishkek munosabatlarida sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi va logistika bilan birga “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li va “Qambarota GES-1” kabi yirik mintaqaviy loyihalar ham muhim o‘rin egallamoqda.

Tojikiston bilan munosabatlarda 2026-yili yangi siyosiy va iqtisodiy bosqich boshlandi. Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishi yakunlari bo‘yicha savdo aylanmasi hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasi, investitsiya, tog‘-kon sanoati, innovatsiya, agrosanoat majmuasi va turizm sohalarida qator hujjatlar imzolandi. O‘tgan yili ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi qiymati 1 milliard dollarga yaqinlashdi.

Turkmaniston bilan ham strategik sheriklikning iqtisodiy mazmuni kengaymoqda. 2025-yilda ikki davlat o‘rtasidagi savdo hajmi 1 milliard dollardan oshdi. “Shovot — Toshhovuz” chegaraoldi savdo zonasining ishga tushirilishi savdo aloqalarini yangi shaklga olib chiqdi. 2026-yilda transport, energetika, sanoat va suv xo‘jaligidagi hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Bu misollar Markaziy Osiyodagi yaqinlashuvning siyosiy muloqot bilan cheklanib qolmayotganini ko‘rsatadi. Yangi yo‘llar, elektr energiyasi, sanoat kooperatsiyasi, chegaraoldi savdosi, logistika, turizm va investitsiya loyihalari mintaqadagi davlatlarning iqtisodiy manfaatlarini tobora ko‘proq bir-biriga bog‘lamoqda.

Prezidentimiz tomonidan Markaziy Osiyoni “umumiy investitsiya va savdo makoni”ga aylantirish g‘oyasi ilgari surilayotgani ham ana shu jarayonning strategik yo‘nalishini belgilaydi. Mintaqada transport va savdo bog‘liqligini kuchaytirish, umumiy investitsiya platformalarini yaratish, qo‘shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish borasidagi tashabbuslar iqtisodiy manfaatlarni umumiy taraqqiyot maqsadi bilan uyg‘unlashtirmoqda.

Ijtimoiy himoya va inson kapitali

Iqtisodiyotning o‘sishi jamiyat hayotida o‘z aksini topgandagina taraqqiyotning mazmuni to‘liq namoyon bo‘ladi. Shu bois, yangi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat iqtisodiy islohotlarning tabiiy davomiga aylandi.

Kambag‘allikni qisqartirishning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bu boradagi eng muhim o‘zgarishlardan bo‘ldi. Ijtimoiy himoya tizimida ehtiyojmand oilalarni aniqlash, ularga xizmat ko‘rsatish va mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yangi mexanizmlar shakllandi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mazkur yo‘nalishdagi izchil sa’y-harakatlar tufayli kambag‘allik darajasini 2017-yildagi 35 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha, bugun esa 4 foizga tushirishga erishildi. Bu esa turmush sifati yaxshilangan 10 million insonning taqdirida o‘z aksini topdi. Shu bilan birga, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2025-yilda 75,4 yoshga ko‘tarildi. So‘nggi o‘n yilda esa 650 mingdan ziyod oila zamonaviy uy-joyga ega bo‘ldi. Mazkur ko‘rsatkichlar iqtisodiy islohotlar samarasi jamiyat hayotida namoyon bo‘layotganini tasdiqlaydi.

Inson kapitaliga munosabatda ham sezilarli o‘zgarish yuz berdi. Maktabgacha ta’lim bilan qamrov 27 foizdan 78 foizga, oliy ta’lim bilan qamrov 9 foizdan 44 foizga yetgani ta’lim tizimidagi keng ko‘lamli yangilanishlarning aniq ko‘rsatkichidir.

Bu raqamlar zamirida, avvalo, muhim ijtimoiy mazmun mujassam. Maktabgacha ta’lim qamrovining kengayishi bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga erta jalb etilishini ta’minlash bilan bir qatorda ularning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi, maktab ta’limiga tayyorgarligi hamda keyingi ta’lim bosqichlarini samarali o‘zlashtirishi uchun zarur shart-sharoitlarni kengaytirmoqda. Oliy ta’lim qamrovining ortishi esa yoshlarning zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarni egallashi, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi va raqobatbardoshligini oshirishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonlar uzoq muddatli istiqbolda inson kapitalining sifatini yuksaltirish, iqtisodiyotning bilim va innovatsiyalarga asoslangan tarmoqlarini rivojlantirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu sababli ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik sohalariga sarmoya kiritishga iqtisodiy siyosatdan alohida qarab bo‘lmaydi. Bilimli, kasbli, sog‘lom va mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan inson mamlakat iqtisodiyotining eng qimmatli kapitaliga aylanadi.

Ijtimoiy siyosatning tobora manzilli va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan tus olayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuvda ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatishning o‘zi bilan cheklanib qolmay, inson va oilasi uchun barqaror daromad manbaini shakllantirish, kasbiy ko‘nikmalarni egallash, mehnat bozorida munosib o‘rin topish va iqtisodiy faol hayotda to‘laqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bunday yondashuv ijtimoiy himoyani vaqtinchalik ko‘mak mexanizmi darajasidan insonning iqtisodiy mustaqilligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan barqaror tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning xalqaro reytinglarda qayd etayotgan natijalari ham mamlakatimizdagi iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlarning xalqaro maydondagi aks sadosini ko‘rsatuvchi muhim indikatorlardan. Xususan, Jahon intellektual mulk tashkilotining 2025-yilgi Global innovatsiyalar indeksida 79-o‘rinni egallashimiz mamlakatimizda innovatsion salohiyatni rivojlantirish, bilim va texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faollikni kengaytirish borasida muayyan natijalarga erishilayotganini ko‘rsatadi. 2026-yilda startap ekotizimining jadal rivojlanib borayotgani esa yangi texnologik yechimlar, innovatsion tadbirkorlik va yangi biznes tashabbuslarining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini namoyon etmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiyotda bilim, texnologiya, innovatsiya va xususiy tashabbusga tayangan yangi o‘sish omillari tobora muhim o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining kelgusi bosqichi ham xuddi shunday mantiq asosida davom ettirilmoqda. Davlatimiz rahbari mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dasturni e’lon qildi. Xususan, iqtisodiyotni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazishga qaratilgan uchinchi milliy dastur doirasida kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi, 2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulot hajmining 300 milliard dollarga yetkazilishi, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochilishi hamda jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotning 10 ming dollardan oshishi belgilangan. Bu vazifalar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda uning natijalarini aholi farovonligining barqaror va uzoq muddatli yuksalishiga xizmat qildirishga yo‘naltirilgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot falsafasining mazmun-mohiyati davlat salohiyatini inson imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish, iqtisodiy o‘sishni aholi farovonligi va hayot sifati yuksalishiga uzviy bog‘lash, ichki islohotlarni esa tashqi ochiqlik va mintaqaviy hamkorlik bilan mustahkamlashda namoyon bo‘lmoqda. Bugungi ustuvor vazifa mustaqillik yillarida yaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy poydevorni yanada mustahkamlash, erishilgan natijalarni yangi imkoniyatlar bilan boyitish va mamlakat taraqqiyotini bilim, mehnat, tadbirkorlik hamda inson kapitaliga tayangan sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishdan iborat.

Shu ma’noda, mustaqillikning 35 yillik tajribasi erishilgan natijalarni sarhisob qilish bilan birga kelgusi taraqqiyot uchun yangi maqsad va mas’uliyatni anglashga undaydi.

Imkoniyat va imtiyozlar juda katta. Ammo bu imkoniyatlar tadbirkorni sun’iy qo‘llab-quvvatlash, istalgancha faoliyat yuritishiga yo‘l ochib berish uchun berilmayati. Aksincha, maqsad biznes egalari faoliyatini qonuniylashtirish orqali yanada rivojlanishga keng yo‘l ochishga qaratilgan. Ulardan faqat to‘g‘ri va o‘z o‘rnida foydalanishimiz kerak.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 22-sentabr, 196-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Nuqtayi nazar



Sayfullo SOBIROV,
“Sofizar” qo‘shma korxonasi rahbari



IKKINCHI IMKON

Tadbirkorlar undan to‘g‘ri va o‘z o‘rnida foydalanishi kerak

Keyingi vaqtlarda odamlar orasida “tadbirkorlar uchun ikkinchi imkon” iborasi ko‘p aylanyapti. Bu, bir tomondan, Prezidentimizning joriy yil 27-avgustdagi tegishli farmoniga ko‘ra “ikkinchi imkon” iqtisodiy amnistitsiyasi e’lon qilingani bilan bog‘liq.

Dastlab “ikkinchi imkon” iqtisodiy amnistiyasi mohiyatiga to‘xtalsak. Oddiy aytganda, bu tadbirkorlarga qarzdorlik, soliq yoki boshqa iqtisodiy majburiyatlarini muayyan shartlar asosida yengillashtirish, qayta tiklash va faoliyatini davom ettirish imkonini beruvchi mexanizmdir. Kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘llanilayotgan ushbu yondashuv joriy yilning 31-dekabriga qadar davom etadi.

Bunda iqtisodiy amnistiya e’lon qilingunga qadar yuzaga kelgan soliq qarzi (bundan penya mustasno) 2026-yil 31-dekabrga qadar to‘liq to‘languda, ushbu qarzdorlik bo‘yicha hisoblangan penya hisobdan chiqarilib, ular bilan bog‘liq ijro ishlari tugatilishi belgilangan. Shuningdek, avval taqdim etilgan soliq hisobotlariga soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda tuzatish kiritilib, qo‘shimcha hisoblangan soliq summasi 2026-yil 31-dekabrga qadar to‘liq to‘languda, ushbu summaga nisbatan penya hisoblanmaydi. Qolaversa, tadbirkorlik subyektlari soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun to‘lov topshiriqnomasini bankka taqdim etmaganlik uchun ma’muriy javobgarlikdan ozod qilinadi. 2026-yil 1-yanvarga qadar shakllangan ba’zi qarzdorliklar ham hisobdan chiqariladi.

Ya’ni davlat tadbirkorga mavjud qarzdorliklarni bartaraf etish, xatolarni o‘z vaqtida aniqlab, tuzatish uchun vaqt va imkon beryapti. Qarzdorlik hisobiga yig‘ilgan penya va eski jarimalarni yengillashtiryapti. Avval shunday xato va kamchiliklar, bajarilmagan majburiyatlar biznes egasi oyog‘iga tushov, keyingi faoliyatiga to‘siq bo‘lib kelgan. Endi tadbirkor belgilangan shartlarni bajarib, xatolarni mustaqil tuzatishi uchun imkoniyat berilyapti. Hech qanday jarima va jazolarsiz, shunchaki kamchilikni bartaraf etish imkoniyati.

Bu, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun katta qulaylik. Chunki endi ish boshlagan tadbirkor har doim ham bexato ishlay olmaydi, kamchiliklarga yo‘l qo‘yishi tabiiy. Buning uchun uni darhol jazolash esa faoliyatini to‘xtatib qo‘yishi hech gap emas. Bunga ko‘p bor guvoh bo‘lganmiz. “Ikkinchi imkon” mexanizmining asosiy maqsadi tadbirkor faoliyatini qonuniylashtirishga ko‘maklashishga qaratilgan. Faqat buni suiiste’mol qilish emas, unumli foydalanish kerak.

Ana endi “ikkinchi imkon”ning boshqa bir mohiyati haqida so‘z yuritsak. Davlatimiz rahbari bilan bo‘lib o‘tgan oltinchi ochiq muloqotdan keyin buni har bir tadbirkor o‘z tanasida turlicha his etdi, tushundi va tahlil qildi. Mening talqinimcha, ikkinchi imkon bu — shunchaki ma’joziy ma’nodagi tushuncha emas. Buning ortida yillar davomida orttirilgan tajriba, ishonch va erishilgan natijalar turibdi. Ortda qolgan o‘n yil haqiqiy tadbirkorlik muhitini yaratib, bugun yurtimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga faol hissa qo‘shayotgan 1 million 200 mingdan ziyod ishbilarmondan iborat katta kuchni shakllantirdi. Ana endi mana shu kuch orttirgan tajriba va amaliyoti bilan biznesning yangi davriga kirib bormoqda. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, tadbirkorlarimiz “biznesni boshlash” bosqichidan “kapitalni ko‘paytirish” bosqichiga o‘tyapti. Buning uchun ularga yangi imkon, yirik imtiyozlar taqdim etilyapti.

Ochiq muloqot davomida ilgari surilgan takliflar, qo‘shimcha imtiyozlarni eshitib nihoyatda to‘lqinlangandim. Keyinroq Prezidentimizning tegishli farmoni bilan ularning qonuniy mustahkamlanganidan yanada quvondim. Bugun ana shu imkoniyatlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardan to‘g‘ri va o‘z o‘rnida foydalanish har qanday tadbirkorlik subyektini yanada rivojlantirishiga amin bo‘lamiz. Menga qolsa, har bir imtiyoz biznes egalariga berilayotgan juda katta va beminnat ko‘makdir.

Bu yilgi uchrashuvdagi eng katta yangiliklardan biri tadbirkorning oyog‘iga tushov bo‘ladigan asosiy masala — tekshiruvlar tizimining yanada yengillashtirilgani bo‘ldi. Ya’ni farmonga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini har qanday tekshirishga 3 yil muddatga moratoriy e’lon qilindi. Jinoyat ishi doirasida, inson sog‘lig‘iga ta’sirini o‘rganish va mehnat qonunchiligiga rioya etilishi kabi ayrim turdagi tekshiruvlarni istisno qilmaganda, endi tadbirkorning eshigini istalgan davlat idorasi taqillatib kelib, tekshira olmaydi. Moratoriy davrida shunday huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ygan shaxslar hatto belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Bu imkoniyat kichik biznes vakillariga berilayotgan bo‘lsa-da, umumiy tadbirkorlik muhiti rivojida katta o‘rin tutadi.



Bizniki kabi yirik ishlab chiqaruvchilar uchun ham tekshiruvlar bo‘yicha yaxshi yangiliklar qo‘llanilyapti. Masalan, endi o‘rta va yirik tadbirkorlar o‘z korxonasini ixtiyoriy profilaktik auditdan o‘tkazganida xulosani soliq organiga taqdim etadi va soliq idorasi uni tan olishi kerak. Muhimi, aniqlangan kamchilikni bartaraf qilgan tadbirkor jarimaga tortilmaydi va ushbu davr uchun soliq organi tekshiruv o‘tkazmaydi. Davlatimiz rahbari hozir 51 ta idora moliyaviy jarima qo‘llash vakolatiga ega ekani, ammo jarima mablag‘ yig‘ish uchun emas, sohada tartib-intizom va profilaktika uchun xizmat qilishi kerakligini ta’kidlagani bejiz emas. Chunki jarimalarning bir qismi davlat idorasiga tushgani uchun tekshiruvlar sonini oshirish holatlari ham uchragan. Shu bois, endilikda barcha turdagi jarimalar miqdori o‘rtacha 2 barobar kamaytirilgani biz tadbirkorlar uchun katta qulaylik, qo‘shimcha imkoniyat bo‘ldi.

Farmon bilan tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar haqida uzoq gapirish mumkin. Bu yilgi ochiq muloqot oldidan ishbilarmonlarning takliflar bildirish jarayonlaridagi faolligi davlatimiz rahbari tomonidan ularning ko‘pi rag‘batlantirilganida ham aks etdi. Hatto ba’zi imtiyozlarni o‘zimiz ham kutmagandik.

Kichik tadbirkorlik subyekti 10 milliard so‘mgacha kredit olishida garovning 30 foizini davlat, 30 foizini Biznesni kafolatlash kompaniyasi, yana 15 foizini banklar o‘z zimmasiga olishi, eksportyorlarning xorijiy brendmeyker olib kelish xarajatining yarmi to‘lab berilib, tashqi bozorlarda milliy brendlarni targ‘ib qilish, ularni xalqaro talablarga moslashtirishga 50 ming dollargacha subsidiya ajratilishi, kelgusi yildan tadbirkor va davlat o‘rtasidagi nizolarni ko‘rishda “tadbirkorning haqlilik prezumpsiyasi” tamoyili joriy qilinib, biznes egasining aybdorligi sudda isbotlanmaguncha, u aybsiz deb hisoblanishi va jarima hamda boshqa ta’sir choralari qo‘llanilmasligi — bularning barchasi shunchaki imtiyozlar emas, tadbirkorga berilayotgan ulkan ishonch va qo‘llab-quvvatlovdir.

Ayniqsa, “sukut — rozilik” tamoyili joriy etilayotganidan quvondim. Endi tadbirkorlikka oid davlat xizmatlarining 50 foizi “sukut — rozilik” tamoyiliga o‘tkazilyapti. Bu davlat idoralariga murojaatlar bilan bog‘liq. Agar yo‘llangan arizalar belgilangan muddatda ko‘rib chiqilmasa, avtomatik ravishda tadbirkor foydasiga hal qilingan hisoblanadi.

Bu biz uchun ayni muddao bo‘ldi. Chunki ish bo‘yicha davlat xizmatlaridan ko‘p foydalanamiz va ko‘plab murojaatlar qilishimizga to‘g‘ri keladi. Afsuski, ba’zi hollarda arizamizga qonunchilikda belgilangan vaqtda javob ololmaymiz, oylab kutish holatlarimiz bo‘ladi. Natijada ortiqcha vaqt sarflab, qayta murojaat qilishga majbur bo‘lamiz. Chunki masalaga aniqlik kiritishimiz, yechimini qilishimiz kerak.

“Sukut — rozilik” tamoyili ana shu jarayonni tartibga soladi. Endi tegishli davlat idoralariga yo‘llagan murojaatimiz o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmasa yoki qonunda belgilangan muddatlarda javob ololmasak, bu rozilikni bildiradi hamda vaziyat bizning foydamizga hal bo‘ladi.

* * *

Ko‘plab davlatlarda bo‘lamiz, tadbirkorlar bilan suhbatlashamiz. Doim bir narsaga amin bo‘lamanki, yurtimizda biznes sohasiga berilayotgan bu darajadagi imkoniyat va imtiyozlarni jahonning boshqa davlatlarida kuzatmadim. Nima uchun bugun tadbirkorlarimiz faqat rivojlanish, dunyo bozoriga faol chiqish haqida o‘ylayapti, aniqrog‘i, o‘ylay olyapti? Chunki ularning oyog‘iga tushov bo‘ladigan katta muammolar, qo‘rquv va ishonchsizlik yo‘q. Aksincha, yanada keng sharoit, ko‘proq imtiyozlar yaratib berilyapti.

Zargarlik korxonamiz 2021-yilda tashkil etilganida investitsiya miqdori 3 million dollar bo‘lgan. Hozir savdo aylanmamiz 10 million dollarga yetdi. O‘nlab turdagi tayyor zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarib, eksport qilamiz. 150 ga yaqin kishini ish bilan ta’minlaganmiz.

Bu rivojlanishlar o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Avvalo, sohaga e’tibor, qolaversa, qo‘shimcha imtiyozlar sabab ishlab chiqarish quvvatlarini doimiy oshirib boryapmiz. Birgina soliq imtiyozlarining o‘zi faoliyatimiz rivojida katta o‘rin tutadi. Bugunga qadar QQSning 85 foizini qaytarib berish imtiyozidan foydalanib kelyapmiz. Qolaversa, biz zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilar mol-mulk va yer solig‘idan ozod qilinganmiz.

Umuman, imkoniyat va imtiyozlar juda katta. Ammo bu imkoniyatlar tadbirkorni sun’iy qo‘llab-quvvatlash, istalgancha faoliyat yuritishiga yo‘l ochib berish uchun berilmayati. Aksincha, maqsad biznes egalari faoliyatini qonuniylashtirish orqali yanada rivojlanishga keng yo‘l ochishga qaratilgan. Ulardan faqat to‘g‘ri va o‘z o‘rnida foydalanishimiz kerak.

Agrotarmoq istiqbollari



YOZYOVONDA SUV YUZIDA SHOLI YETISHTIRILDI

Yozyovon tumanida sholi o‘rim-yig‘imi boshlandi. Bu mavsum har yildagidan noan’anaviy jihati bilan ajralib turadi. Gap oddiy paykalga ekilgan ekin haqida emas, balki baliqchilik ko‘llarida suv yuzida intensiv usulda parvarishlangan sholi haqida bormoqda.

Ko‘lda sholi ko‘kartirish bir qarashda imkonsiz tuyuladi. Ammo yozyovonlik mirishkorlar ana shu g‘oya asosida sun’iy baliq ko‘llarida kassetali texnologiya asosida organik sholi yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi. Bu tajriba tumandagi 37 ta fermer xo‘jaligining 110 gektar yerida o‘tkazildi.

— Yangi usul har jihatdan samarali, — deydi “Hamkor namuna” fermer xo‘jaligi rahbari Avazbek Nurmatov. — Sinov-tajriba sifatida yarim gektar baliq ko‘li sathida — po‘kak ustida urug‘ qadash va ko‘chat holida sholi parvarishladik. Ekinlar yaxshi rivojlanib, odatdagiga nisbatan 10-15 kun oldin yetildi. Don sifati yuqori bo‘lgani bois, o‘rtacha hosildorlik 50 sentnerdan oshdi. Odatda hosil olish uchun yerni texnika yordamida tayyorlash, turli mineral o‘g‘itlar orqali oziqlantirish va sug‘orishdek mehnat, xarajat talab etiladi. Yangi loyiha bunday ko‘p chiqim va mehnat talab qilmaydi. Bu sohada viloyat agroxizmatlar markazi mutaxassislari hamda Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari bilan faol hamkorlik qildik.

Keyingi yillarda agrar soha ish samaradorligini oshirish, ekin maydonlaridan intensiv foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish borasidagi loyihalar ko‘lami kengaydi. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Qishloq xo‘jaligiga 100 ta innovatsion g‘oya” loyihasi ilgari surildi. Unga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida g‘o‘zapoyadan “biochar” bioo‘g‘iti tayyorlanmoqda. Shu orqali tuproq unumdorligi oshib, qo‘shimcha daromad olinyapti. Rishton va Quva tumanlarida kartoshka tuganaklarini qizil spektrli nur yordamida undirib, kasalliklarga chidamli, serhosil navlar yaratishga kirishildi. Yozyovon tumanida esa suv yuzida (suzuvchi) sholi yetishtirish tajribasi amaliyotga joriy qilindi.



Rahmatilla SHODMONOV olgan suratlar.

Innovatsion agrotexnologiyalar yordamida yetishtirilgan sholi an’anaviy usulda parvarishlanganiga qaraganda sifat va narx jihatdan ikki barobar ustunlikka ega. Bu ichki bozorda raqobatdoshlikni oshirib, eksport salohiyatini kengaytiradi.

— Suv yuzida sholi yetishtirish o‘ziga xos afzalliklarga ega, — deydi “Katta tosh bog‘lari” fermer xo‘jaligi rahbari Hikmatilla Imomov. — Erta pishib yetiladi, kimyoviy o‘g‘it solinmaydi. Baliqlarni rivojlantirish uchun berilgan foydali elementlar ekin rivojiga xizmat qiladi. Qolaversa, tup olib rivojlangan ekinlar baliqlarni issiq havo haroratidan saqlab, mahsuldorlik ko‘payishiga hissa qo‘shadi. Kelgusi mavsumda 10 gektardan ortiq suv havzasida yangi texnologiya asosida sholi yetishtirmoqchimiz.

Zamonaviy agrotexnologiyalar asosida ko‘l yuzasida sholi parvarishlash yozyovonliklarga “yersiz dehqonchilik” qilish imkonini beradi. Ilm-fan yutuqlari va innovatsiya g‘oyalari asosida ulkan havzalarda suzuvchi sholi ekib, undan mo‘l hosil olish tajribasi Xitoy, Vyetnam, Filippin, Tailand kabi mamlakatlarda yaxshi rivojlangan. Bu usulning yana bir afzalligi shuki, mahsulot to‘liq organik holatda yetishtiriladi. Natijada ekologik jihatdan toza, sifati yuqori hosil olinadi.

— Yozyovonda har yili an’anaviy usulda o‘rtacha 2500-2800 gektarga sholi ekilib, 15,5 ming tonna hosil olinadi, — deydi Agroxizmatlar markazi tuman bo‘limi mutaxassisi Bekzod Jo‘rayev. — Yangi tajriba tumandagi 88 ta baliqchilik fermer xo‘jaligi ixtiyoridagi 1800 gektardan ortiq ko‘l sathida qo‘shimcha sholi yetishtirish imkoniyatini beradi. Bir gektar ko‘lda o‘rta hisobda 50 sentnerdan hosil olinsa, daromad salmog‘ini chamalash qiyin emas. Mazkur texnologiya an’anaviy usulda sholi yetishtirishdagi xarajatni 30-50, suv sarfini 20-30 foizgacha kamaytirish, mineral o‘g‘itlarni tejash va hosildorlikni 10-15 foizgacha ko‘paytirish imkonini beradi. Bu loyiha ko‘llardan unumli foydalanish, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari ochish, sholikor dehqon va fermer xo‘jaliklari manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Farg‘onadagi baliqchilik xo‘jaliklari misolida ko‘lda sholi yetishtirish texnologiyasi muvaffaqiyatli sinovdan o‘tdi. O‘simliklarning vegetativ rivojlanishi me’yorida kechdi. Ildiz tizimi yaxshi shakllandi va tuplash bosqichiga kelib, kuchli biomassa hosil qildi. Bu mazkur texnologiyani yurtimizda amaliyotga keng joriy etish uchun yetarli ilmiy asos beradi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bog‘dorchilik

Kitob tumanidagi so‘lim tog‘ bag‘rida tajribali dehqonu bog‘bonlar yetishtirgan noz-ne’matlar doim xaridorgir bo‘lgan. Xususan, Sumak qishlog‘ining nashvatilarini boshqa joyda uchratish qiyin. Keksa bog‘bonlar aynan shu nashvati (nokning bir navi) niholidan boshqa hududlarga ekib ko‘rgan. Ammo mevasi bu yerdagidek mazali bo‘lmagan. Aytishlaricha, qishloq ahli bir necha asrdan beri nashvati yetishtirar ekan.



UCH ASRDAN BUYON EKSPORT QILINAYOTGAN MEVA

Mustafo Olimov shu yerning yetakchi bog‘bonlaridan. Aytishicha, hovlisida 300-350 yillik nashvati daraxtlari bor ekan. Hosil yaxshi bo‘lgan paytlari bitta daraxt bir tonnagacha meva berarkan.

— Bu bog‘ ota-bobolarimizdan meros, — deydi Mustafo Olimov. — Ular tajribali bog‘bon bo‘lgan. Vaqt topdi deguncha bitta bo‘lsa-da, nihol o‘tqazgan. Hozir bog‘dagi daraxtlar ko‘pligidan hisobini aniq bilmaymiz. Biz ham shu an’anani davom ettirib kelyapmiz: bir tup daraxt qurisa, o‘n tup nihol ekamiz. Otam doim bog‘ oralab, daraxtlarga qarab yurardi. Uning izidan yurib, bog‘dorchilik sirlarini o‘rgandik. Nashvatiga kelsak, hatto og‘ir davrlarda ham aholi shu meva bilan kun o‘tkazgan. Bugun qishloqdagi har bir xonadonda nashvati bor.

Nashvatining Sumak navi juda mashhur. Uning xorijda ham xaridorlari bisyor. Ular hosil pishishidan oldin buyurtma bera boshlaydi. Tayyor bo‘lgach, turli davlatlarga olib ketadi. Buxoro amirligida ham aynan Sumak nashvatisining bozori chaqqon bo‘lgani aytiladi.

Tog‘ etagidagi so‘lim qishloqning yoqimli havosidan rohatlanib Mustafo ota bilan bog‘ oralaymiz. Bog‘ning adog‘i ko‘rinmaydi. Bir tomonda olmalar shig‘il hosil solgan. Boshqa tomonda nok, nashvati, yong‘oq... Ba’zi olcha daraxtlarining shoxi qayrilgan. Ba’zilari esa singan.

— Bu ayiqning ishi, — deydi bog‘bon. — Ba’zan och qolsa, boqqa kirib xohlagan mevasini terib yeydi. Gohida bolalarini yetaklab keladi. Qornini to‘yg‘azib, keyin ketadi.

Hadiksirab atrofga boqamiz. Oldimizdan ayiq chiqib qoladigandek tuyuladi. Suv quyilgan yerlarda katta ayiqning panja izi shundoq ko‘rinib turibdi. Bu battar qo‘rqitadi. Bog‘bon esa beparvo. Holatimizni anglab:

— Xavotirlanmang! Ayiqqa ham tinchlik kerak. U odam isini olisdan sezadi. Shu sabab tunda — hamma uxlab yotganida bog‘ oralaydi, — deydi u. — Bir kuni nabiram bilan ariqqa suv boshqarib kelayotgandik. Huv narida suv yuvib ketgan katta o‘ra bor. Shuning ichida yotgan ekan. Jonivor bizni uzoqdan sezib, qochib qoldi. Aslida, ularning ham shu yerda rizqi bor. Tog‘ jonivorlari ham nimadir yeb, oziqlanishi kerak-ku. Gohida olmalarni chala terib ketamiz. Qolgani ayiqlar uchun, albatta.

Bog‘ni tomosha qilib, ulkan daraxt oldida to‘xtadik. Mustafo otaning aytishicha, nashvati daraxti 300-yillik ekan. Bu yoshdagi daraxtlardan hozir bog‘da 28 ta bor. Bular ikki yarim asrdan ziyod vaqtdan beri hosil beradi. Yil yaxshi kelganida bir tup daraxtdan yarim tonnadan ortiq meva olish mumkin ekan.

— Ayni paytda “Mustafo Murtazoxon o‘g‘li” fermer xo‘jaligini tashkil etganmiz. Bog‘imizda 500 tupdan ziyod olma, qaroli, 300 tupdan ortiq nashvati daraxti mavjud. Hozir xo‘jalikda oilaviy mehnat qilamiz. Mavsum paytida 40 ga yaqin kishini ishga jalb etamiz. Daromadimiz yomon emas. Agar mavsum yaxshi kelib, daraxtlarimizga kasallik tegmasa, 10 tonnadan ziyod nashvati olamiz. Xaridor uydan olib ketadi. Bir yilda o‘rtacha 700-800 million so‘m foyda olyapmiz. Shuning ortidan turmushimiz yaxshilanmoqda. Mashina oldik. Farzandlarimizning oliy ta’lim olishiga imkoniyat yaratyapmiz, — deydi bog‘bon. — Nashvati yetishtirish va saqlash aslida oson ish emas. Buning o‘ziga xos mehnati bor. Misol uchun, terim paytida ehtiyotkorlik zarur. Uzun narvon qo‘yib, bittalab terish lozim. Shundan so‘ng har biri bittadan ipga ilinib, qorong‘i xonada saqlanadi. Bu xona “Cho‘g‘” deyiladi. Qishloqdoshlar buni yaxshi o‘zlashtirgan. Shu tariqa nashvatini juda uzoq muddat tabiiy usulda saqlash mumkin. Qaysidir yili 9-may kuni uyimizga mehmon keldi. Nashvatiga qiziqib qoldi. Surishtirsam, uning uyida ham nashvati bor ekan. May oyigacha saqlabdi. Bu eski gurung. Hozir muzlatkichli omborlar qurildi. Bemalol uzoq vaqt saqlash mumkin.

Qishloq keksalarining aytishicha, bir paytlar Sumak nashvatisini uzoqqa olib ketish imkoni bo‘lmagan. Lekin undan tayyorlangan, shirasi tilyorar shinni maxsus idish, ya’ni echki terisidan yasalgan tulumda olis yurtlarga olib ketilgan. Shu sabab qishloq ahli necha asrki, xorijliklar Sumak nashvatisi ta’mini unutgani yo‘q deya faxrlanadi. Bugun esa u chet el bozoriga asl holicha kirib bormoqda. Faqat hozir eksportchilar boshqa hudud tadbirkorlari.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON
SAMARKAND 2026

21-sentabr kuni karate bo‘yicha 67 kilogramm vazn toifasida ishtirok etgan Abdulvahob Rashidov O‘zbekiston delegatsiyasiga musobaqadagi dastlabki oltin medalni taqdim etdi. Hal qiluvchi bahsda hamyurtimiz mezbon Yaponiya vakili Yugo Kozakidan ustun kelib, Osiyo o‘yinlari chempioni bo‘ldi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

KO‘ZGU 5

2026-yil 22-sentabr, 196-son

Reportaj





G‘ALABAGA ISHONCH RUHIDA KECHAYOTGAN KUNLAR

Ayni kunlarda O‘zbekiston sporti bir vaqtning o‘zida ikki katta tarixiy jarayonni boshidan kechirmoqda. Samarqandda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi tobora qizg‘in pallaga kirayotgan bo‘lsa, Yaponiyada start olgan Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar har bir ochko uchun murosasiz bahslarga kirishdi. Miqyosi va tabiati turlicha bu ikki musobaqa mamlakatimiz sportining bugungi imkoniyatlari qayerga yetgani va xalqaro maydonda oldiga qanday vazifalar qo‘yayotganini ko‘rsatadigan muhim jarayon sifatida kechmoqda.

Sentabrning ikkinchi yarmi o‘zbek sporti uchun ana shunday qizg‘in, tig‘iz va o‘ziga xos tarixiy davrga aylandi. 15-sentabr kuni Samarqandda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi va ertasiga asosiy bahslarga start berildi.

Erkaklar o‘rtasida asosiy jamoamiz Vengriyaga hech bir taxtada imkon qoldirmadi. To‘rt partiya, to‘rtta g‘alaba va yakunda 4:0! Olimpiada darajasida bunday yirik hisob jamoamizning kuchi, ishonchini ko‘rsatib turibdi. Ayollar o‘rtasida ham asosiy jamoamiz kuchli AQSH terma jamoasiga qarshi munosib bahsga kirishib, durang qayd etdi. Kuchli raqibga qarshi bunday natija keyingi bahslar oldidan yanada katta ishonch beradi.

Ushbu muvaffaqiyatlar birdaniga paydo bo‘lib qolgani yo‘q, ularning poydevori aynan katta sinovlar, unutilmas dramatik bahslar va tarixiy lahzalarda toblangan. Jamoamiz xarakterining ildizlarini his etish uchun yaqin o‘tmishga, shaxmat olamini larzaga keltirgan o‘sha mashhur turnirga bir nazar tashlash kifoya qiladi.

2022-yilgi Chennay Olimpiadasi. 10-tur. Dunyo yoshlar shaxmatining eng ramziy va shiddatli to‘qnashuvi: Hindiston-2 va O‘zbekiston. O‘sha kuni hisob 2:1 ko‘rinishida raqib foydasiga hal bo‘layotgan, jamoamiz qaltis vaziyatda turgan og‘ir pallada barchasini bitta o‘yin hal qilishi kerak edi.

Mezbonlarning 16 yoshli vunderkindi Dommaraju Gukesh turnirda qatorasiga 8 ta g‘alaba bilan fenomenal o‘yin ko‘rsatib, o‘yin davomida ustunlikka ega bo‘lib turgandi. Biroq eng mas’uliyatli va hal qiluvchi pallada Gukesh qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ydi — Nodirbek Abdusattorov bu imkoniyatni qo‘ldan boy bermay, fantastik g‘alabani ilib ketdi va jamoamiz uchun hisobni tenglashtirdi. Boshqa taxtalarda Rameshbabu Sindorovdan ustun kelgan bo‘lsa, Nodirbek Yoqubboyev va Jahongir Vohidov o‘z partiyalarini ishonchli durang bilan yakunladi. Natijada yakuniy hisob yana 2:2 bo‘ldi. Bu shiddatli bahs orqali O‘zbekiston mag‘lubiyatsiz seriyasini saqlab qoldi, so‘nggi tur oldidan peshqadamlik imkoniyatini boy bermadi va 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi chempionligini keltirgan tarixiy yo‘lni muvaffaqiyatli davom ettirdi.

Yaqin yillarda bu ikki terma jamoa olimpiada doirasida ikki bor to‘qnash keldi va har ikkala bahs ham 2:2 hisobidagi jangovar durang bilan yakunlandi. 2022-yil Chennayda o‘tgan uchrashuvdan so‘ng O‘zbekiston sensatsion tarzda olimpiada chempioniga aylangan bo‘lsa, 2024-yilda Budapeshtdagi turnir yakunida oltin medallar Hindistonga nasib etdi.

O‘sha tarkiblarning asosiy vakillari bugun jahon shaxmatining yetakchi grossmeysterlariga aylangan va endi ular yana, uchinchi bor olimpiada doirasida qarama-qarshi kelmoqda.

O‘zbekiston ayni damda 1-o‘rinni egallab turibdi. Vengriyaga qarshi kechgan o‘yinda 4:0 hisobida g‘alaba qozonib, ajoyib shiddat bilan barchani hayratda qoldirmoqda. Jamoamizning o‘rtacha reytingi — 2720. Turnirning 2-raqamli jamoasi va 2024-yilgi olimpiada chempionlari bo‘lmish Hindiston hozir 3-pog‘onada bormoqda. Ularning o‘rtacha reytingi — 2735.

Nega bu o‘yin turnirda hal qiluvchi ahamiyatga ega? Musobaqaning asosiy da’vogarlaridan biri bo‘lgan AQSH terma jamoasi ochko yo‘qotdi. Germaniya kabi kuchli raqiblar ham oldinda, biroq amaldagi chempion Hindiston ustidan qozonilgan g‘alaba shaxmatchilarimizga chempionlik poygasida ulkan ustunlik taqdim etadi va oltin medallar sari juda jiddiy qadam tashlanadi. Hindiston jamoasi bilan kechgan juda muhim bahsda Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov va Shamsiddin Vohidov raqiblari bilan durang o‘ynagan bo‘lsa, Nodirbek Yoqubboyevning Nihal Sarindan ustun kelishi 2,5:1,5 hisobidagi



g‘alabani ta’minladi. Asosiy raqobatchilar ochko yo‘qotayotgan pallada bu imkoniyatni qo‘ldan boy bermaslik muhim.

Shu paytda O‘zbekistondan qariyb olti ming kilometr sharqda yana bir ulkan sport marafoni boshlangan. 19-sentabr kuni Yaponiyaning Nagoya shahrida XX yozgi Osiyo o‘yinlari rasman ochildi. Keyingi 16 kun davomida, ya’ni 4-oktabrga qadar 11 mingga yaqin sportchi 43 ta sport turi bo‘yicha 469 ta medal jamlanmasi uchun kurashadi. Yaponiya uchun bu Tokio (1958) va Xirosimadan (1994) keyin uchinchi Osiyo o‘yinlaridir. Mamlakat uni oxirgi marta qabul qilganiga 32 yil bo‘ldi.

O‘zbekiston terma jamoasi o‘z tarixidagi eng yirik tarkiblardan biri bilan bordi: 42 ta sport turi bo‘yicha (ularning 36 tasi olimpiya turi) 396 sportchi (224 erkak va 172 ayol). Bitta raqamning o‘zi so‘nggi yillarda o‘zbek sporti geografiyasi qanchalik kengayganini anglatadi. Endi Osiyo o‘yinlari biz uchun bir necha an’anaviy kuchli yo‘nalishlargagina bog‘liq musobaqa bo‘lib qolmayapti. Delegatsiyaning ko‘lami turli sport maktablari qit’a miqyosidagi raqobatga chiqayotganini ko‘rsatadi.



Kuzatish marosimi 12-sentabr kuni Toshkentdagi Olimpiya va Paralimpiya shon-shuhrati muzeyida bo‘lib o‘tdi. Nagoyadagi paradda bayroqni boks bo‘yicha jahon chempioni To‘rabek Habibullayev va qilichbozlik bo‘yicha Osiyo o‘yinlari g‘olibi Guliston Pardaboyeva olib o‘tdi.

Jamoaning maqsadi aniq: “Xanchjou-2023” natijasini yaxshilash. O‘shanda O‘zbekiston 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida beshinchi o‘rinni egallagan edi.

O‘zbekiston sportchilari ilk bor Osiyo o‘yinlarida plyaj voleyboli, voleybol, yelkanli sport, skvosh va MMA bo‘yicha ishtirok etadi. Bir qator sport turlari, jumladan, kamondan otish, chim ustida xokkey, tennis, syorfing, triatlon va skvosh bo‘yicha Los-Anjelesda bo‘lib o‘tadigan 2028-yilgi Olimpiya o‘yinlari uchun litsenziyalar o‘ynaladi.

Ayni kunga qadar O‘zbekiston delegatsiyasi “Aichi-Nagoya-2026” XX yozgi Osiyo o‘yinlarining dastlabki kunlarida uchta medalni qo‘lga kiritdi.

21-sentabr kuni karate bo‘yicha 67 kilogramm vazn toifasida ishtirok etgan Abdulvahob Rashidov O‘zbekiston delegatsiyasiga musobaqadagi dastlabki oltin medalni taqdim etdi. Hal qiluvchi bahsda hamyurtimiz mezbon Yaponiya vakili Yugo Kozakidan ustun kelib, Osiyo o‘yinlari chempioni bo‘ldi.

20-sentabr kuni karate bo‘yicha 55 kilogramm vazn toifasida bahsga kirishgan Humoyunmirzo Halimov ham finalga qadar yetib bordi. Hal qiluvchi bosqichda u qozog‘istonlik Joloman Bigabilga imkoniyatni boy berdi va musobaqani kumush medal bilan yakunladi.

21-sentabr kuni aralash jang san’atining modern yo‘nalishida 71 kilogramm vazn toifasida ishtirok etgan Nodirbek Shavkatov O‘zbekistonning musobaqadagi ikkinchi medalini rasmiylashtirdi. O‘zbekistonlik yarim finalda qozog‘istonlik Qodirbek Shinboyevga imkoniyatni boy berib, uchinchi o‘rinni egalladi va bronza medalga sazovor bo‘ldi. Shu tariqa O‘zbekiston delegatsiyasi “Aichi-Nagoya 2026” Osiyo o‘yinlarida hozircha bir oltin, bir kumush va bir bronza medalni qo‘lga kiritdi.

Albatta, sport taraqqiyotini bir turnirdagi g‘alaba yoki medallar soni bilangina o‘lchab bo‘lmaydi. Uning haqiqiy ko‘lami tizim qanchalik barqaror ishlayotgani, yangi sportchilar yetishib chiqayotgani, raqobat muhiti kuchayayotgani va bugungi natijalardan keyingi bosqich uchun qanday xulosa chiqarilishida bilinadi. Samarqand va Nagoyadagi musobaqalar ham ayni jihatdan muhim: biri O‘zbekistonning dunyo shaxmatidagi o‘rnini yana bir bor sinovdan o‘tkazayotgan bo‘lsa, ikkinchisi mamlakat sportining qanchalik ko‘p yo‘nalishda rivojlanayotganini ko‘rsatyapti.

Hozircha oldinda bahslar ko‘p, yakuniy natijalar haqida gapirishga erta. Shaxmatchilarimizni ham, Yaponiyadagi katta delegatsiyamizni ham hali jiddiy sinovlar kutmoqda. Shu sabab bu kunlarning eng to‘g‘ri ta’rifi ehtimol maqola sarlavhasining o‘zida mujassam: biz ayni paytda g‘alabaga ishonch ruhi mujassam kunlarni boshdan kechiryapmiz.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yuksalish pallasi

“El-yurt umidi” jamg‘armasining Koreya Respublikasidagi stipendiati Lobar Saidova raqamli stomatologiyani o‘zlashtirib, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini o‘rganib, texnologiyalar shifokor faoliyatida qanday asqatayotganini kuzatmoqda. Ammo u kasbiy yo‘lining yakuniy nuqtasini Seulda emas, balki Buxoroda ko‘radi.

BILIMLAR UYGA QAYTISHI KERAK



Koreys madaniyatida “ppalli-ppalli” — “tez-tez” iborasi mavjud. U poyezdlar jadval bo‘yicha aniq yetib keladigan, raqamli xizmatlar kundalik hayotning bir qismiga aylangan, tibbiyot muassasalari esa murakkab, ammo mukammal sozlangan mexanizmni eslatadigan mamlakat ritmini tasvirlaydi. Lobar Saidova uchun bu iboraning ahamiyati, ayniqsa, stomatologiya klinikasida yaqqol seziladi.

— Bir professor kuniga 40-50 bemorni tez va sifatli qabul qilishi mumkin, — deydi u. — Lekin bu sur’atning ortida butun boshli tizim turibdi: shifokorning jihozlangan bir nechta kabineti va assistentlar jamoasi bor. Har kim o‘z vazifasini aniq biladi va uni professional darajada bajaradi.

Stipendiat Lobar Saidova bu tizimni chetdan kuzatmaydi. U Koreya Respublikasining yetakchi akademik va tibbiyot markazlaridan biri bo‘lgan Yonse universitetida ortopedik stomatologiya bo‘yicha doktoranturada tahsil olyapti. Bu yerda u tadqiqotlar bilan shug‘ullanib, raqamli stomatologiyani o‘zlashtirmoqda va Koreya tajribasining qaysi jihatlarini O‘zbekistonda qo‘llash mumkinligi haqida o‘ylamoqda.

Meros orzu

Lobar Buxoroda tug‘ilib o‘sgan. To‘rt farzandning eng kichigi. Uning tanloviga ta’sir ko‘rsatgan asosiy shaxs — onasi.

— Onam shifokorlarni juda hurmat qiladi, — deydi u. — Bir vaqtlar o‘zi ham tibbiyot oliygohida o‘qimoqchi bo‘lgan, lekin oxir-oqibat filologiya fakultetini tamomlagan. Shuning uchun u bizga tez-tez “Siz shifokor bo‘lishingiz kerak”, deb aytar va buning uchun imkon qadar sharoit yaratib berardi.

Lobar stomatologiya yo‘nalishini tanladi. 2017-yilda Buxoro davlat tibbiyot institutining ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasi assistenti vazifasida ish boshladi. O‘qituvchilik faoliyatini stomatologiya klinikasidagi amaliy ish bilan uyg‘unlashtirdi. Ikki yil o‘tgach, kasbiy yo‘li ilk bor uni Koreya Respublikasiga olib keldi.

Rejalarni o‘zgartirgan safar

Lobar 2019-yili “El-yurt umidi” jamg‘armasining malaka oshirish dasturi bo‘yicha ikkinchi ochiq tanlovida g‘olib bo‘ldi. Buxoro davlat tibbiyot institutidagi uch hamkasbi bilan Seul milliy universitetiga ikki oylik stajirovkaga jo‘nab ketdi. Safarga chiqishdan oldin Koreya Respublikasi dunyodagi eng rivojlangan tibbiyot tizimlaridan biriga ega ekanini bilardi. Ammo reallik har qanday ta’rifdan ham ishonarli bo‘lib chiqdi.

— Shifoxonalar tuzilmasi, bemorlarga xizmat ko‘rsatish sifati hamda stomatologiyada qo‘llanayotgan yangi texnologiyalarni ko‘rganimda hayratda qoldim va juda ilhomlandim, — deb eslaydi Lobar Saidova. — Aynan o‘shanda men bu yerga qaytib, doktorlik tadqiqotimni o‘tkazishni xohlayotganimni tushundim.

Stajirovkadan so‘ng Lobar O‘zbekistonga qaytib keldi va jamg‘arma oldidagi majburiyatlarini bajarib, yana uch yil kafedrada ishladi. Dars berdi, bemorlarni davoladi, olgan bilimlarini hamkasblari va talabalari bilan baham ko‘rdi. Biroq doktorlik darajasi haqidagi fikr uni tark etmadi.

Dastlabki stajirovka vaqtida birga ishlagan ustozi unga Yonse universitetiga e’tibor qaratishni maslahat bergandi. Bu yerda kuchli xalqaro akademik muhit shakllangan, stomatologiya maktabi esa tashxis qo‘yish va rejalashtirishdan tortib, protez yasashgacha bo‘lgan davolashning barcha bosqichini astasekin o‘zgartirayotgan raqamli stomatologiya yo‘nalishini faol rivojlantirmoqda.

Qiziqish vatandoshlarning tajribasi bilan ham mustahkamlandi. Ungacha Yonseda “El-yurt umidi” jamg‘armasining boshqa stipendiatlari ham o‘qib, o‘z dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlagan edi.

— Ular erishgan natijalar haqida eshitganimda aynan shu universitetda o‘qishni davom ettirish va tadqiqotchilik bilan shug‘ullanish istagim yanada kuchaydi, — deydi Lobar.

“Raqamli stomatologiya” deganda, birinchi navbatda, zamonaviy uskunalar tushuniladi. Lobar uchun esa uning ahamiyati ancha keng: texnologiyalar shifokorning ishini murakkablashtirmasligi, balki davolash jarayoni xavfsizsizligi va aniqligini ta’minlab, kutilgan natijani berishi kerak.

— Bu haqiqatan, davolash sifatini oshiradigan juda qiziqarli yo‘nalish, — deb tushuntiradi u. — Men Yonsedagi raqamli stomatologiya imkoniyatlarini imkon qadar chuqurroq o‘rganishga harakat qilyapman.

Uning doktorlik tadqiqoti tizimli sharh va metatahlilga asoslangan. Bunday yondashuv bitta muammo bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar natijalarini to‘plash, dalillar sifatini baholash, ma’lumotlarni taqqoslash va u yoki bu usulning qanchalik samarali ekanini aniqlash imkonini beradi.

Qahramonimiz turli tibbiy tadqiqotlarni piramidaga o‘xshatadi.

— Piramidaning eng yuqorisida tizimli sharh va metatahlil joylashgan, — deydi u. — Biz muayyan mavzu bo‘yicha barcha tadqiqotni to‘plab, chuqur tahlil qilamiz va xulosa chiqaramiz. Shundan so‘ng amaliyotchi shifokorlar yangi usul haqiqatan, ish beradimi, uni davolashga joriy etish kerakmi-yo‘qligini tushunib olishi mumkin.

Bu bir qarashda sezilmaydigan ish: ko‘p soatlab nashrlarni qidirish, ma’lumotlarni qat’iy saralash, hisob-kitoblar va tadqiqotlar sifatini tekshirish degani. Lobarning muhim kasbiy yutuqlaridan biri dental implantologiya sohasidagi ishlanmalari bilan tanilgan Janubiy Koreyaning “Osstem Implant” kompaniyasining maxsus stipendiyasini qo‘lga kiritgani bo‘ldi. Uning yordamida tadqiqotchi raqamli stomatologiya bo‘yicha ixtisoslashtirilgan mahorat kursini tamomladi.

— Odatda bu stipendiya koreys talabalariga berilardi, — deydi u. — Biz bu imkoniyatga loyiq deb topilgan birinchi xorijliklar qatoridan joy oldik. Bu men uchun alohida faxr bo‘ldi.

Texnologiyalar va o‘zaro hurmat mamlakati

Lobar Koreya Respublikasini faqat tibbiyot darajasi uchun tanlamagan. Uni odamlarning avtobus, do‘kon yoki shifoxonada navbatini sabr bilan kutishi va bir-birining shaxsiy hududini hurmat qilishi hayratga soladi.

Tezlik va intizomning uyg‘unligi tibbiyotda ham namoyon bo‘ladi. Bemor shifokor shoshilgani uchun emas, balki ma’lumotlar, uskunalar va xodimlar ishi bir tizimga birlashtirilgani uchun zarur bosqichlardan tezroq o‘tadi. Bunga misollardan biri elektron kasallik tarixidir. Bemor stomatolog huzuriga kelganda shifokor nafaqat uning tishlari holati haqidagi ma’lumotlarni, balki surunkali kasalliklari, tayinlangan muolajalar va iste’mol qilayotgan dori-darmoni haqidagi ma’lumotlarni ham ko‘radi.

— To‘plangan barcha ma’lumotga asoslanib, biz individual davolash rejasini tuzamiz, — deydi Lobar. — Menga bu tizim juda yoqadi. Ishonchim komilki, uning O‘zbekistonda rivojlantirilishi yaxshi natija berishi mumkin.

Qaytish — yo‘lning davomi sifatida

Doktorantura bosqichini tugatgach, Lobar o‘zining kasbiy faoliyati boshlangan joyga — Buxoroga qaytish, Janubiy Koreyada qo‘llanilayotgan tezkor va sifatli stomatologik davolash usullarini O‘zbekistonda ham amaliyotga tatbiq etish niyatida.

U hatto Seulda turib ham o‘zbekistonlik hamkasblarining ishini kuzatib boradi. Murakkab restavratsiyalar, sifatli protezlash va ildiz kanallarini davolashning zamonaviy usullarini ko‘radi. Uning so‘zlariga ko‘ra, o‘n yil oldin mahalliy stomatologiya jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada orqada edi, ammo bugun vaziyat o‘zgarmoqda.

> **“ Doktorantura bosqichini tugatgach, Lobar o‘zining kasbiy faoliyati boshlangan joyga — Buxoroga qaytish, Janubiy Koreyada qo‘llanilayotgan tezkor va sifatli stomatologik davolash usullarini O‘zbekistonda ham amaliyotga tatbiq etish niyatida.**

— Har bir hududda kuchli mutaxassislar bor. O‘zbekistonda allaqachon jahon standartlariga javob beradigan klinikalar faoliyat yuritmoqda, — deydi Lobar Saidova. — Ishonchim komilki, yaqin besh-o‘n yilda biz rivojlangan mamlakatlar darajasida xizmat ko‘rsata olamiz.

Butun xalqning ishonchi

Lobar o‘zini “El-yurt umidi” jamg‘armasining ikki karra stipendiati deb ataydi. Birinchi amaliyot dasturi unga boshqa tibbiyot tizimini ko‘rish, doktorantura esa ushbu tizimning bir qismiga aylanish va uni ichidan o‘rganish imkonini berdi.

Koreyada yosh o‘zbekistonliklar ko‘pincha tanlov, hujjatlarni tayyorlash va xorijda ta’lim olish imkoniyatlari haqida ma’lumot olish uchun uning oldiga kelib turadi.

— Ular mening “El-yurt umidi” stipendiati ekanimni eshitib, darhol savollar beradi va maslahat so‘ray boshlaydi, — deydi u. — Shuning uchun imkon qadar yoshlarga yordam berishga harakat qilaman. Jamg‘arma stipendiati bo‘lish — ulkan sharaf va katta mas’uliyat. Men bu qo‘llab-quvvatlovni butun O‘zbekiston xalqining ishonchi sifatida qabul qilaman. Vatanga qo‘limizdan kelganicha foyda keltirishimiz kerak.

Ehtimol, chinakam ta’lim ham aynan shu oddiy fikrdan boshlanar.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Imom Buxoriy majmuasi nafaqat ziyoratgoh, balki dunyo islom olamining ilmiy markaziga aylanishi zarur. Ushbu betakror qurilish Yangi O‘zbekistonning ulkan imkoniyatlarini yaqqol namoyon qiladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Buyuk o‘zbek yo‘li



BIZ HAM YELKAMIZNI TUTIB BERAYLIK!

> Davlatimiz rahbarining har bir masalaga bu qadar batafsil, sinchkovlik va qunt bilan yondashuvida ulug‘ bir hikmat ko‘raman. Balki bu fazilatlar buyuk ajdodlarimizdan meros bo‘lgan insonparvarlik g‘oyasining Prezidentimiz tomirlarida jo‘sh urayotgani natijasidir deb xayol qilaman. Alloh peshonasini siylayman degan xalqiga uning munosib farzandini rahnamo qilib yuboradi!



Suyun KARIMOV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning mustaqilligimizning o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda so‘zlagan nutqini tinglaganimizga ham 30 kunga yaqin vaqt bo‘lib qolibdi. Ammo o‘sha kun — 28-avgustdan buyon qalbimizni bir da’vatona fikr nurga, quvonchu faxrga, shukronalik tuyg‘usiga to‘ldirib turibdi.

“Bir necha yuz yillik orzular ro‘yobga chiqayotgan bu betakror makonda butun xalqimiz bilan hali yana ko‘plab quvonchli va tarixiy voqealarga guvoh bo‘lamiz”. Mamlakatimiz yetakchisining bu gapi zamiridagi hayotiy ohangdan olam-olam ma’no, qutlug‘ bir mujdalar tuydik.

Bunda, avvalo, yuz yillik orzular ro‘yobga chiqayotgani haqida aytmoq joiz. Agar fikrni bir joyga jamlab tahlil qilsak, keyingi 10 yilda davlatimiz rahbarining tinimsiz mehnati, qat’iy siyosiy irodasi va eng muhimi, xalqimizga buyuk mehri bilan 100 dan ziyod sohada tub islohotlar amalga oshirilganini fahmlaymiz.

Hozir ularning har birini alohida sanasak, turkum-turkum doston bo‘ladi. Birgina ma’naviyat sohasining o‘zida katta o‘zgarishlar guvohi bo‘lyapmiz. Bu jajji bolalarimizni maktabgacha ta’limga qamrab olishdan tortib, aziz farzandlarimizni kitobxonlikka jalb etish, yozuvchi-shoirlarimiz, ziyolilarimizga e’tibordan mahallalardagi ma’naviy muhitni qo‘r oldirishgacha bo‘lgan qutlug‘ jarayonlarda ko‘zga tashlanadi.

Davlatni qudratli qilish g‘oya bilan amalga oshadigan jarayon. Bu g‘oya atrofida butun bir xalq bo‘lib birlashish esa ma’naviy tafakkur bilan ro‘yobga chiqadi.

Biz hozirgina Prezidentimizning mustaqillik bayramidagi nutqiga bejiz to‘xtalmadik. Boisi, mazkur konseptual nutq kelgusi o‘n yillikdagi milliy yuksalish yo‘limizni belgilab bergan muhim siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy hujjat sifatida qalbimizga muhrlandi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanayotganini, o‘zligimizni tobora anglab yetayotganimizni mustaqillik bergan ulug‘ ne’mat sifatida baholadi. Yana ta’kidladiki, **“Jonajon Vatanimiz azaldan ulug‘ mutafakkirlar, aziz avliyolar, buyuk allomalar yurti bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosga munosib ravishda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg‘inoniy yodgorlik majmualari kabi betakror ilmiy-ma’rifiy dargohlarni barpo etdik. Bu muhtasham va tabarruk maskanlar bugun nafaqat yurtimiz va islom olami, balki butun jahon ahlining haqli e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Biz bunday bunyodkorlik ishlarini jadal davom ettiramiz”.**

Mana shu nuqtada **“butun xalqimiz bilan hali yana ko‘plab quvonchli va tarixiy voqealarga guvoh bo‘lamiz” degan qutlug‘ bir ishonch hissi vujudingizni qamrab oladi. “Biz bunday bunyodkorlik ishlarini jadal davom ettiramiz”** degan maqsad esa bizni ma’naviy yuksalishlar haqida fikrlashga undaydi.

Ushbu gaplarni televideniye orqali eshitganimda mamlakatimiz rahbarida milliy va diniy qadriyatlarimizga, ajdodlarimizga ehtirom g‘oyasi kecha paydo bo‘lgan emas degan fikrlar xayolimdan o‘tdi. Chunki mamlakatimiz yetakchisi 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida olamshumul nutq so‘zlab, jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblashi haqida so‘zlagan va bu borada O‘zbekistonda qilinayotgan ishlar to‘g‘risida xabar bergan, Imom al-Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qarorini ham o‘sha yerda ma’lum qilgan edi. Shundan so‘ng Imom al-Buxoriy mangu qo‘nim topgan manzilda birin-ketin binolar qad ko‘tara boshladi.

> Uchrashuvlarning birida davlatimiz rahbari kelajagimizni yaratishga hozirlanayotgan yoshlarga yelkasini tutib berishga tayyor ekanini aytganini eslayman. Qo‘lida or-nomusimiz ramzi — mamlakatimiz bayrog‘ini mahkam ushlagan, qalbida yurt tinchligi, vatan obodligi, xalq farovonligi yo‘lida chinakam fidoyiligini ibrat qilib ko‘rsatayotgan yalovbardor rahbarimizni nega qo‘llab-quvvatlamaylik, nega kamarbasta bo‘lmaylik?!

Avval ana shu tilga olingan markaz, ortidan Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. Mana, endi qarshimizda ulkan me’moriy obida — Imom al-Buxoriy majmuasi qad ko‘tarib turibdi.

2020-yil hamon yodimizda. O‘sha yili qish oylaridan birida biz, nuroniylarga Prezidentimizning Imom Buxoriy majmuasini qayta qurish borasidagi topshirig‘i va bu ishni puxta amalga oshirish rejasi haqida aytilib, oqsoqollardan duo olingandi. Mana shu gapning bo‘lganiga 6 yil o‘tibdi. Bizga majmua qurilishi bir qadar





cho‘zilganday tuyulgandi. Buning sababini keyin anglab yetdik. Davlatimiz rahbari har gal Samarqandga tashrif buyurib, majmua qurilishidan xabar olganida, bergan har bir topshirig‘i bo‘yicha natija so‘rar va **“Xalqimizda yetti o‘lchab, bir kes” degan maqol bor, biz bu yerda qilayotgan ishlarimizda yetmish o‘lchab bir kesishimiz kerak”** degan gapni aytar ekan.

Majmua qurilishi tugallanib, foydalanishga topshirilganiga 6 oy atrofida vaqt o‘tdi. Shu orada borib, muborak bu maskanni ziyorat qilganimizda, uni ko‘zdan kechirish ancha yuzaki bo‘lganini endi angladim. Yaqinda mehmonlar bahonasida Imom al-Buxoriy majmuasiga yana bordik. Bu galgi safarimiz butunlay boshqacha bo‘ldi — uni erinmasdan tomosha qildik.

Biz bu manzilning mustaqillikdan oldingi va keyingi holati haqida tasavvurga ega edik. Avvallari bu yerda ulug‘ muhaddis qabri joylashgan kichikkina maqbara va uning yonida qurilgan masjid hamda ekilgan bir necha chinorni bilardik, xolos. 1997-yilda hukumatimiz allomaning 1225 yilligini nishonlash bo‘yicha qaror qabul qilgan va shu qaror asosida 10 gektar yerda yangidan maqbara va 1500 kishi sig‘imiga ega masjid qurilgan.

Endi qarshimizda turgan majmua avvalgisidan mutlaqo farq qiladigan, chinakam ma’nodagi betakror me’moriy obidaga aylangan edi. Bildikki, majmua maydoni 45 gektarga kengaytirilibdi, 10 ming kishiga mo‘ljallangan yangi masjid qurilibdi. Maqbara kengaytirilibdi, balandligi 23 metrga yetkazilibdi. Qadamjoda 14 moviy gumbaz va har biri 75 metrli 4 ta minora qad ko‘taribdi. Eng ilg‘or va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida 9 pavilyondan iborat noyob innovatsion muzey tashkil etilibdi. Unga o‘tgan payg‘ambarlar, jumladan, Muhammad alayhissalomning shajarasi va hayotiga, Imom al-Buxoriyning ilmiy merosiga, hadislar jamlanishi va yozilishi tarixiga oid bebaho ma’lumotlar joylashtirilibdi. Xullas, qarshimizda nafaqat Samarqandda, balki mamlakatimizda ham yagona bo‘lgan san’at mo‘jizasi turardi!

Majmua qurilishi bilan qiziqib, direktor Sahobiddin Arziqulov bilan suhbatlashdik. Uning guvohlik berishicha, majmua bosh me’mori Prezidentimizning o‘zi bo‘lgan. Bu yerda bajarilgan har bir ish — kattasidan kichigigacha uning bevosita maslahatlari bilan qilingan. Har tashrif buyurganida avval berilgan topshiriqlar natijasini so‘ragan, ortidan esa navbatda bajariladigan vazifalarni tayinlagan.

Angladikki, qurilish materiallarining aksariyati, turli rangdagi qimmatbaho toshlar chet eldan — Italiya, Turkiya, Portugaliya, Gretsiyadan, ustunlar Hindistondan keltirilgan. Hirot oq marmarini esa 16 ta yuk mashinasida afg‘onistonlik birodarlarimiz yuborganini internet manbalaridan o‘zim o‘qiganman. Hunarmand ustalarning ham bir qismi tashqaridan — Turkiya, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan taklif qilingan. Ammo asosiy mas’uliyat samarqandlik mahalliy ustalar zimmasida bo‘lgan.

Maqbaraga bo‘yoq mutlaqo ishlatilmagan. Peshtoqlardagi arabcha yozuvlar ham quyma holida mahkamlangan. Yog‘och rangda ko‘rinadigan ustunlar aslida toshdan yasalgan. Hamma ishlar qo‘lda bajarilgan. Hamisha moviy rangda jilolanib turadigan hovuzlar mikroiqlimni barqarorlashtirib turadi. 600 yillik chinorlar esa saqlanib qolgan.

Majmua ilgari 12 ming kishiga xizmat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, endi bu ko‘rsatkich 65 mingga yetgan. Viloyat hokimligi ma’lumotlariga ko‘ra, majmua ochilgan birinchi oydayoq 1 milliondan ortiq ziyoratchi kelgan.

Majmua huzurida turizm markazi mavjud. Yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat ko‘rsatish va servis nuqtalari barpo etilgan. Jumladan, 1 ta to‘rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli mehmonxona, 176 o‘rinli 22 ta oilaviy mehmon uyi hamda avtoturargoh qurilgan. Mazkur obyektlar to‘liq kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlanib, obodonlashtirish ishlari bajarilgan. Majmua hududida 130 mingdan ziyod gul, buta va daraxt ko‘chati ekilgan. Qadamjodagi barcha ko‘kalamzorlar



zamonaviy yomg‘irlatib sug‘orish tizimi orqali parvarishlanadi.

Qutlug‘ maskan yaqinida yangi turizm obyekti — “Kampung Indonesia” (Indoneziya mahallasi) o‘z faoliyatini boshlaganidan xabardor bo‘lgan, boshqa islomiy davlatlar ham bunday mahallalar barpo etishi mumkinligini ko‘z oldiga keltirgan odamda faxrlanishdan boshqa yana qanday tuyg‘ular kechishi mumkin?

“Sahih al-Buxoriy” Qur’oni Karimdan keyingi eng ishonchli va mo‘tabar manba hisoblangani kabi favqulodda san’at asari va me’morlikning bebaho namunasi bo‘lgan bu majmuaga islom olamining buyuk ziyoratgohi maqomi berilishini umid qilamiz.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ushbu betakror majmua yangi O‘zbekistonning ulkan imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Darhaqiqat, ziyoratgoh xalqimiz uchun, jahondagi barcha musulmonlar uchun ezgulik va ma’rifat nurini taratadigan qutlug‘ maskanga aylanib bormoqda.

2022-yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan bir voqea hamon yodimdan chiqmaydi. O‘shanda Samarqandda “Boqiy shahar” majmuasining tantanali ochilish marosimi bo‘lgan, unda Prezidentimiz nutqida mamlakat istiqboli haqida maroq bilan so‘zlagan edi.

Oradan ko‘p o‘tmadi. Tarixiy va zamonaviy sharqona arxitektura uslubida qurilgan va 212 gektarni qamrab olgan bu ulkan majmua har yili 2 million sayyohga xizmat qiladigan, bundan ham muhimi, xalqaro forumlar o‘tkaziladigan maskanga aylandi.

Majmua tarkibiga kiradigan Kongress holl, 8 ta zamonaviy mehmonxona qurilganida ana shu ulug‘ niyatlar nazarda tutilganmikan deb o‘ylab qolaman. Go‘yo butun dunyo xuddi o‘rta asrlarda bo‘lgani kabi ilmu ma’rifat istab Samarqandga shoshilayotganday... BMT tasarrufidagi va boshqa xalqaro tashkilotlar tadbirlari, UNESCO 43-sessiyasi yig‘ilishi, SHHT sammiti kabi har yili 20 dan ortiq xalqaro forum o‘tkazilayotgani, chet davlatlar rahbarlari tantanali ravishda kutib olinayotgani **Samarqandda Uchinchi Renessans boshlanganining isbotimikan deb hayratlanaman.**

Bu tadbirga tashrif buyurgan davlat va jamoat arboblari ham, mutasaddi rasmiy kishilaru olimlar ham shu sabab Samarqand tarixiy obidalarini, jumladan, Imom al-Buxoriy majmuasini tomosha qiladi. Tabiiyki, o‘z mamlakatlariga qaytganidan keyin afsonaviy Samarqandning targ‘ibotchiyu tashviqotchilariga aylanadi. Bu holatni ko‘z oldimga keltirar ekanman, beixtiyor qalbim g‘ururga to‘ladi. **Yurt yetakchisining “Qilsa bo‘lar ekan-ku!” degan gaplarini ichimda takrorlayman, hayajonlanaman.**

Muhim ahamiyatga molik yana bir ma’lumot yodimga keldi. O‘tgan yili davlatimiz rahbari qaroriga ko‘ra kalom ilmi asoschilaridan biri, ta’limotida din, shariat va ahkomlarning bosh maqsadi inson manfaatlariga xizmat qilish, unga yengillik yaratish va uni ikki dunyo saodatiga boshlash ekani ta’kidlangan Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlangan. Ushbu qaror asosida buyuk alloma mangu qo‘nim topgan maskanda 10,2 gektar hududda Imom Moturidiy majmuasi qayta qurilib, 250 o‘rinli masjid, ilmiy markaz, kutubxona, muzey va avtoturargoh bunyod etishga kirishilgan edi.

Prezidentimiz joriy yilning mart oyida Samarqandda bo‘lganida Imom Moturidiy majmuasiga ham tashrif buyurdi va qilinayotgan ishlarni sinchiklab o‘rganib, qo‘shimcha topshiriqlar berdi.

Davlatimiz rahbarining har bir masalaga bu qadar batafsil, sinchkovlik va qunt bilan yondashuvida ulug‘ bir hikmat ko‘raman. Balki bu fazilatlar buyuk ajdodlarimizdan meros bo‘lgan insonparvarlik g‘oyasining Prezidentimiz tomirlarida jo‘sh urayotgani natijasidir deb xayol qilaman. Alloh peshonasini siylayman degan xalqiga uning munosib farzandini rahnamo qilib yuboradi!

Bu gigant ilmiy-ma’rifiy inshootlarning qurilishi yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi zalvorli qadamlardir, asrlarga tatigulik islohotlardir. Ular Alloh tomonidan bir insonga yuqtirilgan buyuk tafakkurning me’moriy hosilasidir. Ana shuning uchun ham Prezidentimiz g‘oyalari navbatma-navbat amalga oshmoqda. Xalqimiz ma’naviy barkamolligi uchun beminnat xizmat qilmoqda.

Uchrashuvlarning birida davlatimiz rahbari kelajagimizni yaratishga hozirlanayotgan yoshlarga yelkasini tutib berishga tayyor ekanini aytganini eslayman. Qo‘lida or-nomusimiz ramzi — mamlakatimiz bayrog‘ini mahkam ushlagan, qalbida yurt tinchligi, vatan obodligi, xalq farovonligi yo‘lida chinakam fidoyiligini ibrat qilib ko‘rsatayotgan yalovbardor rahbarimizni nega qo‘llab-quvvatlamaylik, nega kamarbasta bo‘lmaylik?! Nega Prezidentimiz uchun biz ham yelkamizni tutib bermaylik?! Bu borada har birimizning — nuroniylarning ham, o‘rta bo‘g‘in va yosh avlodning ham o‘z burchlari va vazifalari bor. Zero, ularni aniq va vaqtida bajarish Vatanimizga va Prezidentimizga sadoqatimizning yorqin dalili bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.